

O'qituvchi  
nimani  
o'ylaydi?

Rus sinflaridan birining ota-onalar yig'ilishida qatnashdim (sinfdagi 30 dan ortiq o'quvchining 3-4 nafariga na rus millatiga mansub edi). Yigirmadan ortiq ota-onaya yig'ilgan. Muloqot payti bir o'quvching onasi rus millatiga mansub bo'lmasa-da, bu rus sinfi bo'lgani uchun rus tilida gapishimni talab qildi. Unga javob qaytarmasidan boshqa bir rus millatiga mansub o'quvchining onasi o'zbekchalab "Rus bo'laturib O'zbekistonda yashab, ishlab shu yurtning, shu xalqning nonini yeb, oila boqyapmiz. O'zbek tilida gapishni or bilmay, qiyalsamda o'zbek tilida gapiryapman, bu tilni hurmat qilaman, siz-chi?" dedi...

Aslida biz uchun kelajakdagi eng katta xavf va muammo yuqoridagi singari O'ZBEKISTONda yashab o'z ona tili — davlat tilida mu-loqot qilmasdan, undan uyalib boshqa tilda mu-loqot qilishni talab qiladiganlardir.

Zavqibek MAHMUDOV

Bechora (uzr-u, shu aniqlovchidan foydalanishga arziyidigan holga kelib qolgan) maktab rahbarlarimizning "Ustozlar bu hafta "yashil"ga chiqaylik, iltimos. Hozir shu masala yuzasidan yig'ilishga ketyapman. Gap eshitishdan bezib ketdim. Harakatni kuchaytiraylik" deb yalinishlariga qarab rahmingiz keladi. Ularni bu qiyin holatdan chiqaraylik deb, hamma o'qituvchilar ota-onalar nomidan kundalik.com ga kirib, baholarga bir ko'z yogurtirib chiqyapmiz. Bu ko'zbo'yamachiliklarga bosh qo'shishga majburligimizdan "dod" deymiz gohida...

Avvallari o'quvchilarining kundaliklariga ularning ota-onalari haftada birgina imzo qo'yib berishini o'quvchilarga tayinlayverib charchardik. Ba'zilarining kundaligiga o'zimiz ota-onalar o'rniiga imzo qo'yishga ham majbur bo'lardik. Xo'sh, kechagi kunimizdan bugunning farqi nimada?..

Mavjud QOBILOVA

Kuch - bilim va tafakkurda

# Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2024-yil 21-fevral chorshanba № 8(9489)

Xalq ziyorilari gazetasi

"Yosh kitobxon" tanlovi:

**"KOBALT"  
SAMARQAND VA  
QASHQADARYOGA KETDI**



“Mening tajribam” tanloviiga

## BIR XILLIKDAN QOCHAMIZ

### (Yuqori sinflarda ona tili va adabiyot fanlari uchun)

Bugungi kun o'quvchisi o'ta qiziquvchan va darsda bo'sh qolsa sinfni boshiga ko'taradi. Bunday o'quvchilar diqqatini qiziqarli metodlar orqaligina jamlash, darsga nisbatan qiziqish uyg'otish mumkin. Shuning uchun dars jarayonida yangi qiziqarli o'yinlarni sinab ko'raman.

#### "MATN TUZ" O'YINI

Bu o'zin 8-sinf o'quvchilariga so'z birikmasi mavzusini o'rgatish jarayoniga tayyorlik ko'rish paytimda tuzilgan.

**Tarbiyaviy ahamiyati:** o'quvchini mustaqil bilim olishga o'rgatish.

**O'zin sharti:** o'qituvchi yokiunga yordamchi o'quvchi oldindan yozib tayyorlab qo'yilgan(bir-biriga mazmunan bog'lana oladigan ikkita so'z kartochkaga oldindan yozilgan) kartochkalarni tarqatib chiqadi. O'zin yanada qiziqarli bo'lishi uchun o'quvchilarini 5 yoki 6 kishilik guruhlarga bo'lish yaxshi natija beradi. Bolalar guruhlarga bo'lingach, tarqatilgan kartochkadagi so'zlar ishtirokida so'z birikmalarini hosil qilishadi.



So'z birikmalari bitishuvli, moslashuvli va boshqaruvli bo'ladi. Kartochkalarda faqat ikkitadan so'z yoziladi, ma'nova mazmun talabi bilan o'quvchilar o'zlarini so'zlariga qo'shimchalarini qo'shishi kerak. So'ng o'z misollarini aytib bellashishadi. Keyingi shartda bolalar shu so'zlar ishtirokida kichik hikoya, she'r yoki ta'sirli va ma'noli fikr aytishlari kerak bo'ladi.

**Darsda qo'llanadigan vaqt:** yangi mavzuni o'tish jarayonida.

**Kutilgan natija:** o'quvchilarni hamkorlikda ishlash, hamjihatlikka o'rgatish.

G'olib o'quvchilar o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi. Eng ta'sirli nutq nominatsiyasi beriladi.

#### "MAVSUMIY O'YIN" METODI

**Tarbiyaviy ahamiyati:** o'quvchini ona tabiatni sevishga o'rgatish.

**O'yindan maqsad va kutilgan natija:** bir xillikdan qochish, o'quvchilarni tabiat go'zalligidan zavqlanishga o'rgatish.

**O'zin sharti:** bu o'yindan o'qituvchi yangi mavzuni tushuntirish jarayonida foydalansa maqsadga muvofiq. O'qituvchi oldindan tayyorlab qo'ygan slaydni yoki plakatga chizilgan rasmni ko'rsatishi mumkin. Agar bu metodga o'qituvchi oldindan tayyorlanmagan holda foydalanoqchi bo'lsa doskaga bo'r bilan chizishi ham mumkin. Bu o'zin "Mavsumiy" deb nomlangani sabab ham faslga qarab o'zgarib boradi. Masalan, bahorda yam-yashil, kuzda sap-sariq rangdag'i barglar tasviri, qish faslida qor zarralari, yozda quyosh nurlari tafti ifodalanadi. O'qituvchi rasmni o'zi xohlagan tasvir bilan o'zgartirishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga doskada keltirilgan barglar asosida daraxt tasvirini chizishni buyuradi.

**Darsda qo'llanadigan vaqt:** yangi mavzuni o'tish jarayonida.

Bu metoddan 9-sinf dagi "Qo'shma gap" mavzusini o'tganda foydalinish mumkin. Bitta daraxt bu bitta tarkibli – bir kesimdan iborat sodda gap. Ikkita daraxt bu ikkita kesimdan iborat qo'shma gap. O'quvchilariga qo'shma gapni teng bog'lovchi vositalarni ikki daraxtning o'ttasiga qo'yib tenglikni ko'rsatamiz. Agar darsimiz ergashgan qo'shma gap bo'lsa, bosh gap shakliga daraxt shaklini, ergash gap shakliga esa kichik daraxt tasvirini ko'rsatamiz.

Teng bog'lovchili qo'shma gaplarni o'r-

gatganda teng daraxtlardan foydalanashimiz ham mumkin.



#### "PIRAMIDA" O'YINI

**Tarbiyaviy ahamiyati:** o'quvchini ijobiy fazilatlarga o'rgatish.

**O'yindan maqsad va kutilgan natija:** o'quvchilarni yaxshi kishilarning ijobjiy fazilatlarini o'rganishga o'rgatish.

**O'zin sharti:** slayd, plakat yoki doskada piramida rasmni chiziladi. Piramida chizilgach yoki ko'rsatilgach, o'quvchilarga "Piramidal nima?" deb savol beriladi. O'quvchilar javoblaridan so'ng, o'qituvchi fikrni xuloselaydi. Piramida yuksaklik belgisi ekan. Biz ham ramziy ma'noda piramidaning uch qismi komillik deb belgilaymiz. Piramidaning pastki qismiga insonning yaxshi fazilatlarini yozib boramiz. Masalan: 9-sinfda "Alpomish" dostonini oladigan bo'lsak. Alpomish yuksaklikka qanday erishdi? Birinchi navbatda o'qish tufayli. Piramidaning tagiga bilim olish deb yozamiz.



Piramidaning yon tomonlariga esa humar o'rganishi. Yana bir tomoniga kichkina bo'lishiga qaramasdan qo'rqmasligi. Yana

asardagi Alpinbiy bobosidan qolgan parli yoydan kamon otib Asqartog'ni qo'porib ketishi, noto'g'ri qadam tashlaganda to'g'ri yo'l o'rgatilsa buni qabul qilishi holatlari yodga olinadi. Shunday davom etib piramidaning uch qismiga qadar yozib to'ldiramiz. Eng baland qismiga komil shaxsligini, to'kis insonga aylanganini qayd etib qo'yamiz. O'quvchilarga tushuntiramiz. Demak, yetuk inson bo'lishning poydevorini bilim shakllantirib berar ekan. Komillik bilim va yaxshi fazilatlar jamlanmasi ekan.

**Darsda qo'llanadigan vaqt:** yangi mavzuni mustahkamlash, o'tilgan mavzuni so'rash jarayonlarida.

**Mavzular:** istagan adabiyot darslari da asar qahramonlarining ijobjiy sifatlarini o'chish uchun qo'llash mumkin.

#### QIZIL YELKANLI KEMA

**Tarbiyaviy ahamiyati:** o'quvchini go'zallik bilan oshno qilish, qalbiga yaxshiliklarni olib kirish.

**O'yindan maqsad va kutilgan natija:** Mashqni shunchaki yozmasdan, o'quvchiga zavq ulashish. O'quvchiga ona tili darsiga muhabbat hissini oshirish.

**Darsda qo'llanadigan vaqt:** yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida.

Bolalar 3 guruhg'a bo'linadi. Har bir guruh a'zolari birgalikda 3 ta qizil yelkanli kemaga chiqadilar. O'quvchilarga oqim bo'ylab suzish buyuriladi. Doskada yoki slayd orqali suvda suzib yurgan kema tasviri ko'rsatib qo'yiladi. O'quvchilar mashqni zo'r ishtiyoy bilan bajarishadi.

**Rag'bat kartochkasi:** mashqni shartga ko'ra to'g'ri bajargan o'quvchi kema kaptani kartochkasi bilan rag'batlantiriladi.

Hilola BEBUTOVA,  
Olot tumanidagi

15-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

## Tajriba

### ERTAK AYTIB, NUTQNI O'SТИRING

Xalq og'zaki ijodi – insoniyatga tengdosh eng qadimiy san'at. O'zbek xalqi ming yillar davomida yaratgan milliy xazinamizning nodir merosi bo'lgan og'zaki badiiy ijod namunalari hamisha inson kamoloti, yurt farovonligi, jamiyat yetukligi borasida ma'naviy ozuqa bo'lib xizmat qiladi. Yillar to'zonidan omon-eson o'tib, ajdodlardan meros qolgan folklor janrlari ijtimoiy-siyosiy, ta'limiy-tarbiyaviy sohalarda mifik, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda yo'lboshlovchi vazifasini o'taydi. Xalqning turmush tajribalari, kundalik kuzatishlari natijasida yuzaga kelib, o'z isbotini topgan maqollar, naqlarni hayot maktabi darsligi desak mubolog'a bo'lmaydi.

Harbirinson umri davomida xalq o'g'zaki ijodidan bahramand bo'lib ulg'ayadi. Bolaligida ertak eshitib katta bo'lmagan odam bo'lmasa kerak. Biz ertak, rivoyat, afsonalarini eshitib, aynan shular orqali dunyoni o'rganamiz. Ularda xalq badiiy tafakkurining eng sara mevusi yashiringan. Buni anglash va ularni qayta kashf etish kishining hayotni tushunishi, odam va olam munosabatlarini o'rganishiga yordam beradi.

Xalq og'zaki ijodini o'rganish – xalq tarixi, urf-odat, an'analarini, o'y-kechinmalari, buguni va kelajagini tadqiq etish demakdir. Millatning o'zini anglashi, o'zligini namoyon qilishi, intilishlari, hayot tarizi, dunyoqarashi aks etgan folklor asarlarida o'z aksini topgan dunyoqarash, qadriyatlar yosh avlodni har tomonloma bilimli, ma'naviy jihatdan yetuk etib tarbiyalashda muhim o'rinnutadi. Zero, xalq og'zaki ijodi ma'naviy taraqqiyotning asosiy tarixiy ildizlaridandir. Har bir xalqning og'zaki ijodi o'sha xalqning fe'l-atvori, estetik didi, ruhiyati, urf-odat va an'analarini, orzu-intilishlari, geografik sharoiti va tabiatini aks ettiruvchi o'ziga xos ko'zgudir. Biz ana shu ko'zgu vositasida olamshumul ezgu niyatlar, insoniyatlar, yovuzlik, zulm,adolatsizlikka qarshi nafrat

tuyg'ularini ko'ramiz. Shunday ekan, xalqimizning qalb qo'ri, yuksak aql-zakovati bilan asrlar davomida yaratilib, avloddan-avlodga o'tkazib kelingan folklor namunalarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Olaylik, "Uch og'zani botirlar" ertagida mo'ysafid ota o'z o'g'illarini qo'rmas, jasur qilib o'stridi. Farzandlarini baxt topish safariga otlantrir ekan, ularga uchta maslahat beradi: "To'g'ri bo'ling, bexavotir bo'lasiz. Maqtanchoq bo'lmang, uyatga qolmaysiz. Dangasa bo'lmang, baxtsiz bo'lmaysiz". Bu pand mohiyatini tahlil qilsak, inson haqiqiy amal qilishi kerak bo'lgan fazilatlar aks etganiga ishonch hosil qilamiz. Ertaklarda tarbiyaviylik, ma'naviy yetuklik, komillik, odamiylik, fikran teranlik ustuvor darajada tavsiflanadi. Ertakning pedagogik qiymati shundaki, o'quvchilar unda to'g'rilik, halollik g'alaba qilganidan, kambag'al kishilar qiyinchilikdan qutulganidan, ya'ni yaxshilik, ezzulik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mag'lub bo'lganidan quvonadilar. Hayotda ham doimo shunday bo'lishini istaydilar.

"Halollik" ertagida esa asosiy fikr kambag'allarga yordam ko'rsatish, o'z mehnati bilan hayot kechirish bo'lib, bu hatto butun xalq istagi ekanligi g'oyasi ilgari surilgan. "Hiylagarning jazosi" ertagida esa soddadilning to'g'riligi hiylagarning makri ustidan g'olib kelishi, xiyonat jazo-siz qolmasligi g'oyasi ilgari surilgan. Har ikki ertak ham to'g'riso'zlilikning g'alabasi bilan yakunlanadi. Bunday g'alaba maishiy ertaklardan tashqari, sehrli ertaklarda ham ifodalangan.

Ertak bolalarda qahramonlarning xatti-harakatini muhokama qilib, baholash ko'nikmasini o'strishi bilan birga, yaxshilikning doimo g'alaba qozonishiga ishonch uyg'otadi. O'quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida "Qahramonlardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmad?)", "Nima uchun?", "... nima uchun jazolandi? (yoki

rag'batlantirildi?)", "Nima uchun ertakdagagi ba'zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi? (yoki ba'zilaridan yuz o'giradi?)" kabi savollarga javob topish jarayonida mushohada qiladilar, muhokama qilib xulosha chiqaradilar.

"Davlat", "Ilm afzal", "Hiylagarning jazosi", "Hunarsiz kishi o'limga yaqin" kabi maishiy ertaklar ham borki, ular da xalq o'z hayotini hikoya qiladi, shu sababli o'quvchilar ertakni o'qigach, o'mishdag'i xalq hayoti, o'y-fikrlari va orzu-istiklaklarini bilib oladilar.

Bunday ertaklarni tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyuştilridi. Bolalar o'qituvchi rahbarligida ertak qahramonlarning xulq-atvori, xatti-harakatlarini baholaydilar, ularning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini tahlil qiladilar va shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar chiqaradilar, reja tuzib, ertakni rollarga bo'lib o'qiydilar. Bolalarni ertakni o'qishgagina emas, balki uni aytib berishga o'rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og'zaki nutqni o'stiradi, bolalar nutqini yangi so'z va iboralar bilan boyitadi.

Ertak tilida shunday so'z va iboralar borki, ular bolaga o'zgacha ta'sir ko'rsatadi. Masalan, "Yo'lbars, tulki va bo'ri" ertagida "Tog' echkisi siz ulug'imizni bo'lsin", "Quyon siz podshohimizning ertalabki nonushtangiz bo'lsin", "Kiyik kechqurungi taomingiz, qo'y kunduzgi xo'rangingiz bo'lsin" kabi gaplar tarkibidagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarga o'quvchilar diqqatini qaratilib, ertakni so'zlab berayotganda ulardan nutqda foydalanishlariga erishish zarur. Ertaklarda keltirilgan maqollar ustida ishslash, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni bolalar ongiga yetkazish, yod oldirish yo'li bilan bog'lanishli nutqni o'strish, nutqning ta'sirchanligini oshirish lozim.


Shohida MELIQO'ZIYEVA,  
Qo'qon shahridagi

22-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

## Bashariyat yulduzları

# INSON RUHIYATINI POKIZA ETUVCHI ASAR

**Ma'lumki**, XII–XIII asrlarning tarixiy, madaniy, adabiy hayotida Nizomiy Ganjaviy, Farididdun Attor, Hakim Sanoiy, Ibn al-Arabi kabi buyuk donishmand, olim-u shoirlarning, ilohiy irfon, tasavvufiy shahodat, islomi burhonni ta'lif va tafsir etuvchilarning ijodi alohida o'rinni tutadi. Bunday ijodkorlarning islomi fitrat, tasavvufiy shuhuratga o'ralgan nodir she'riyati, o'zbek she'riyatiga salmoqli ta'sir etgani hech kimga sir emas.



Yuqorida nomlari zikr etilgan shoirlar – hikmat va ilm-u irfon sohiblarning asarlaridagi islomiylari ta'limot va tasavvufiy shahodatning Qur'oni karim aqoidlari va hadisi shariflar asosidagi zikr etilgan hikmat va asrori, boy mazmuni, rang-barang tusdagi botiniy, zohiriylar jihatlarining shajaraviy bayoni ayniqsa, mavlono Jaloliddin Rumiy ijodidagi o'zaro mushtaraklik va mutanosiblikda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Jaloliddin al-Balxiy ar-Rumi (1207–1273) “Masnaviyi ma'naviy”, “Devoni Shams Tabriziy”, “Fihi ma fihi” (Ichindagi ichindadur), “Majlis sab'a” (Yetti majlis) kabi nazmiy va nasriy asarlarning muallifidir.

Rumiy she'riyati barcha zamonlarda madh etib kelindi, birkina “Masnaviyi ma'naviy” asariga ko'plab sharhlar, tahlil va tafsirlar bitildi. Chunki Rumiy asarlari barcha insoniyatning qomusiy dasturulamalidir. Ushbu asarlarda bugungi avlod uchun juda zarur hikmat, irfoniy aqoidlar, hayotiy, ijtimoiy, badiiy talqiniga ega tafakkur chashmalari beqiyos darajada ko'pdil. Mavlona shuhurat keltirgan asarlaridan biri “Masnaviyi ma'naviy” (ushbu asar milodiy 1262-yildan boshlab yozila boshlangan) 25 700 baytni o'z ichigaladi.

Jaloliddin Rumiy “Masnaviy”da inson va uning hayoti bilan bog'liq umumbashariy muammolarni o'rtaga tashlaydi. Ularni dunyoviy, hayotiy farqlar, qarama-qarshiliklar asosidagi o'zaro ichki va tashqi jihatlar bilan bog'lab, uning bosh asosida yotuvchi inson kamoloti, sharafi, e'tiqodi va hayot yo'lidagi ma'naviy barqarorlik va bardavomlikni izohlab o'tadi. Buning tamal toshi Olloh tomonidan nozil

etilgan Qur'oni karim va Ollohnning habibi va rasuli Muhammad Mustafa (s.a.v.) ta'limotida ko'rsatib berilgan barcha asosiy tamoyillar ekanligini alohida ta'kidlaydi. Ya'ni inson olam, uning qonuniyatlar, tabiat, butun borliq yuqorida ta'kidlab o'tilgan tamoyillar asosida o'z harakat uslubi (usuli), mezonini belgilab olishi zarurligini alohida uqtiradi.

Shu bilan bir qatorda diniy-axloqiy, e'tiqod masalalarini ma'naviy tafakkur mezonlariga muvofiq ravishda o'rganib, inson va olam bilan bog'liq ustuvor yo'nalişlar birma-bir, mukammal asosli fikr-mulohazalar, hayotiy hodisalar, jihat va jarayonlar bilan uзвiy tarzda ifodalab beriladi.

Asarni barcha uchun tushunarli, sodda uslubda bayon etadi.

Qisqacha aytganda, “Masnaviy” orif, donishmand shoirlar yoki oliy maqomdagi zotlar bilan bir qatorda oddiy ishchi, dehqon, kosib, hunarmand, etikdo'z kabi din va millat vakillariga havola etilgan hikmat va irfon kitobidir.

Badiiyroq qilib aytganda, shariat va tariqat ahkomlarining Rumiy tafakkuri doirasidagi mukammal bayonnomasidir. Chunki Rumiy asarlari mazmuniya singdirilgan inson taqdiri, uning mavjud ekanligi, ruhiy-ma'naviy merosi haqidagi baytlar, shariat doirasidan chiqib, tasavvufiy ma'no kasb etishi va bunday jihatlar an'anaviylik asosida asardan asarga, she'rdan she'rga ko'chib, o'tib kelganligini ta'kidlash joiz.

Albatta, Jaloliddin Rumiy inson xoh shoh bo'lsin, xoh faqir bo'lsin, agar hayot sinovlari, ishq sinovlari uning vujudiga ko'plab ofat keltirsa, orzulari, niyatlar chippakka chiqib, istaklari amalga oshmasa, Olloh albatta biron-bir hikmat-asror – hayot zavqi, ishqni unga muyassar bo'lishi uchun tayyorlab qo'yganini, bunda ajoyib yaxshiliklar borligini baralla ovozda aytadi. Chunki Rumiy shariat ahlining komillik va kamolot shohsupasida bo'lishi, hayotining butun zavq-u shavqidan, xursand-chiligidan bahramand bo'lib yashashi, umr ko'rishining tarafdoi. U ma'rifikat, tariqatning asosi bo'lgan shariat, ya'ni islomiy Muhammad Mustafa (s.a.v.) shariatini barcha jihatlardan ustun qo'yadi. Bu g'oyani tolib yoxud ahli mo'min insonlarga bot-bot takror eslatadi. Satrlardan anglash mumkinki, shariat juda mustahkam qo'rg'on, inson tabiat, oy, quyosh, yer, suv, barcha jonzotlar bu qo'rg'onidan tashqarida yashashi mumkin emas. Rumiy bu aqoid-



“Robbim oldida yetmish marotaba tavba qilaman”, degan. Boyazid Bastomiy esa “Men o'zimdag'i kamchiliklardan poklandim. Jismimda Olloh taoladan boshqa hech narsa qolmad!” degan. Muhammad Mustafa (s.a.v.) har kuni Olloh taolo bilan o'z orasidagi yetmish pardani bosib o'tar edi”, – deb javob beradi. Jaloliddin Rumiy hazratlari har maqomga erishgach avvalgi maqomdagi holati uchun tavba qilar edi. Boyazid Bastomiy esa faqat birkina maqomga erishib o'sha maqom – darajadan boshi aylanib, shundoq so'zlarni aytdi.

O'sha 1244-yil 24-noyabrdan boshlab Rumiy Shams Tabriziyi ustoz sifatida bildi. Ularning o'zaro ilmiy, nazariy muborasalari chin do'stlikka aylandi. Shu bois mavlono Rumiy o'zining “Devoni Shams Tabriziy” deb nom olgan mashhur g'azallar, ruboilardan iborat kitobida, buyuk fiqh kitobi “Masnaviyi ma'naviy”, “Fihi maa fihi” (“Ichindagi ichindadur”) asarida Shamisdin Tabriziy faoliyatiga doir ko'plab tarixiy va adabiy ma'lumotlarni keltiradi. Rumiy Shams Tabriziy bilan bir qatorda shogirdi va safdoshi Xisomiddin Chalabi xususida ham baytlar bitadi.

*Shoh Xisomiddin nuri panjum ast,  
Tolib ovozi safar; panjum ast.  
Ey ziyo ul-haq Xisomiddin rod,  
Ustodonro sog 'ori ustod.*

Ma'lumki, ushbu baytlar shoir Jamol Kamol qalamida o'zgacha joziba va ma'no ifodasini topgan:

*Shoh Xusomiddin, yulduz toza nur;  
Bizni beshinch'i safarga boshlanur.  
Ey ziyoulhaq, Xusomiddinjon,  
Senki ustodlarga ustodi zam'on.*

Baytlardan ko'rindiki, Jaloliddin Rumiyning ma'naviy maslakdoshi, sir-doshi Xusomiddin Chalabiya samimiyyun munosabati butun asar davomida o'zining badiiy ifodasini topgan. “Masnaviyi ma'naviy” inson ma'naviyati, ruhiyatini pokiza etuvchi asar, u bugungi insoniyatning, jamiyatning ruhiy salomatligini ta'minlovchidir. Shu bois, yoshlarmizning ma'naviy kamolotida, ularning ta'lim-tarbiyasida, butun hayotida muhim ahamiyat kasb etib qolaveradi.

Nuriddin TILLAYEV,  
Nurobod tumanidagi  
26-maktab direktorining  
ma'naviy-ma'rifiy ishlari  
bo'yicha o'rnibosari,  
Jumanazar KULANOV,  
Nurobod tumanidagi  
24-maktabning ona tili va adabiyot  
fan o'qituvchisi

Inson umri o'Ichangan. Odamzod bu yorug' olamga o'z ixtiyori bilan kelmagani singari ketmoq fursati ham uning istagiga bog'liq emas. Qur'oni karimning "Mulk" surasida aytilishicha, Olloh taolo o'limni va hayotni yaratishi zamirida teran hikmat bor: bu – odamlarning qaysi biri umrini yaxshi amallarga bag'ishlashini sinamoq. Shunday bo'lgach, qancha emas, qanday yashash muhimligi ayon. Bu haqda o'ylaganda, bor-yo'g'i o'ttiz besh yil umr ko'rgan bo'lsa-da, o'zidan ezgu nom, muallifning ijod konsepsiyasini va millatning ruhiyatini betakror ifodalagan she'rlar, nodir tarjima asarlar va teran tadqiqotlar qoldirgan Chori Avaz degan nurli siymo ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

U barcha chin shoirlar kabi insonni komil, dunyoni mukammal ko'rmoq istadi. "Poklandimi she'rim bilan bu dunyo?!" deya savol qo'yishi sababi shunda. Jangga tayyor turgan najotkor qalbni she'rdan boshqasiga ko'ndirolmaganiga doir e'tirofi ham bundan dalolat beradi. Shoир har qadamda pok odamlarga pinhor-oshkor tosh otuvchi, begunohlarga ayb taqaydigan, aldaydigan, tuhmatalar yog'diradigan nokaslar-u yomonlarga duch kelaverGAN dan afsuslanadi. "Shu nokaslar bo'lmagandydi, Qanday ozod yashardi bashar?", deya nido qiladi. Bunday kim-salarga nafrati bois tomirlarida qon to'lqinlanadi, dunyoni turmoqqa, uyg'onmoqqa da'vat etadi. Undovlari izsiz ketayotganini ko'rgach, mana bunday hayqiradi:

*Biroq dunyo sokin.  
Shunday sokinki,  
Yoqasidan tutib dunyoning  
Silkitging keladi  
To  
Yomonlari to 'kilgunicha!*

Dunyoning yoqasidan tutib, yomonlari to'kilgunicha silkitish – Chori Avazgacha biror shoirda uchramaydigan ohorli va ta'sirli talqin. Aslida, bu yorug' olamni yomonlardan, zulm va qabohatdan xoli ko'rish istagi qalbini iztirobga solmagan odamdan ijodkor chiqmaydi. Dunyoni nafs-u havo, hirs-u havas, zulm-u sitam kabi yomonlikning manbayi bo'lgan illatlardan pok ko'rmoq – Chori Avazning ijod konsepsiysi asosida ana shu maqsad turadi. "Baxtiyorlik shu emasmi?" kitobiga kirgan esselar-u tahlili maqolalar ham buni tasdiqlaydi.

Chori Avaz hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti o'zbek filologiyasi fakultetida tahsil olgan. Biz birinch o'qishga kirganimizda shoир to'rtinchi kursda o'qirdi. Bu dargohda Ayub G'ulomov, G'ulom Karimov, Subutoy Dolimov, Ozod Sharafiddinov, Begali Qosimov, Umarli Normatov kabi o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligining darg'alari dars o'tar, jo'shqin adabiy-ilmiy muhit bor edi. Bu muhitda o'qish Tangrining marhamati bo'lgan. Ozgina intilishi bor talaba ilm-u urfondan, adabiy-estetik tafakkurdan nasiba olmay qolmagan. Shu bois bu fakultetni bitirgan shoир-u adiblar ham, adabiyotshunoslari-journalistlar ham hamisha ijod karvonining avvalgi saflarida bo'lgan. Chori Avaz talabalik kezlaridanoq bular orasida eng yorqin iste'dod egalaridan biri sifatida alohida ajralib turgan.

"Baxtiyorlik shu emasmi?" kitobi "O'lim – ishq murabbiysi" esesi bilan ochiladi. Ijodkorning bu janrni tanlagani bejiz emas. Chunki esseda fikrni erkinroq ifodalash imkoniyati kengroq. Avvalo, sarlavhada poeziya bor, shoirona nigoh mujassam. "Jahon adabiyotining yirik adiblaridan biri Abdulla Qodiriyga bag'ishlayman" degan ko'ngil izhoridan millatning buyuk yozuvchisi uning ideali ekani ayon bo'ladi. Esseda fikr ifodasi ikki do'st mu nozarasi asosiga qurilgan. Menimcha, aslida, bular ikkala siham Chori Avaz. U turlicha fikrdagi ikki do'st – bir qutbda o'zi, ikkinchisida G'arb adabiyoti muxlisi bo'lgan zamondoshlari siyosida bahs yuritadi. Mavzu – "O'tkan kunlar" dagi Otabek-Kumush munosabatlari ilohiy ishqmi yoki avom ishq? Ilohiy ishq degan fikrda bo'lgan muallif bu boradagi bezovta o'ylariga ko'ngilni tinchlantiradigan

javob topish ilinjida jahon adabiyotini ancha chuqr biladigan do'stini muloqotga chorlaydi. Lekin o'z nuqtayi nazarini ochiq aytmay, pardaga o'rab izhor etadi. Chunki uningcha, "gapni pardalashda, sirlilikda niyatga yetadigan masofa qisqaroq".

– "Ilohiy ishq" faqat kitoblarda uchraydi. Juda noyob hodisa, keyingi zamonlarda esa kitoblarda ham ko'rinxmay qo'ydi. Bu insonning maydalashishi bilan bog'liq fojia bo'lsa kerak, – deb munosabat bildiradi do'sti. – Nazarimda, shu yerda yanglishgandaysan. To'g'ri, ularning ishqiga ilohiylik nuri qorilgan, ammo bu yumush Abdulla Qodiriy yoki Otabek va Kumushga emas, balki ishqning tabiatiga tegishli, xolos.

Ma'lum bo'ladiki, do'sti ham anoyi emas. Unga biror fikrni tasdiqlatish oson kechmaydi. Xullas, ana shu tarzda intellektual bahs kechadi. Muallifning mana bu so'zları munozaraning o'zagi deyish mumkin: "O'lim va tiriklik mazmun va shaklga o'xshash narsa emasmikan. Mazmun o'ziga mos shaklni axtaradi, unda voyaga yetadi va eskir-gandan so'nggina uni tark etadi. O'lim ham shunday narsa emasmi? Biz o'lim vujudning harakatiga nuqta qo'yadi-gan jarayon ekanligini, ya'ni bittagina sifatini bilamiz, xolos. Agar gaplaring rost bo'lsa, o'lim ruhni vujuddan ajratib ola biladigan, xalos qiladigan, qutqaradigan kuchdir. Ya'ni, o'lim ishq murabbiysisidir".

Chori Avaz esseda bahslashuvchilarining qaysi biri haq ekani masalasini ochiq qoldiradi. Bunday yo'l tutil-gani o'quvchini ham tafakkurga undaydi. Bugun adabiyotshunoslikda Abdulla Qodiriy komil musulmon adibi o'laroq asarlar uchun asos manba sifatida Qur'oni karim va hadisi shariflarga tayangani isbotlanmoqda. Jumladan, adabiyotshunos Uzoq Jo'raqulov roman manbayini "ilk sujet" – Qur'oni karimdag'i Odam alayhissalom to'g'risi-dagi ilohiy xabarga bog'laydi. Bu fikrni "ilk uchrashuv motivi" va "visol motivi" asosida dalillaydi. Romandagi "ariq bo'y" uchrashuvining tasodifga mutlaqo aloqasi yo'qligini, aksincha, yozuvchi bu uchrashuvni romanning bir necha o'rniда (dastlab Mirzakarim qutidor mehmon-xonasida Ziyo shohichi tilidan, so'ngra Qutidor va Oftoboyim o'rtasidagi muloqotda, uchinchi marta Xudoyorxon saroyida, Musulmonqul va Otabek o'rtasida kechgan mantiq muborasasida) "taqdir shamoli" deya tilga olgani chuqr badiiy mantiqqa tayanishini isbotlaydi. Roman xuddi shu ilk uchrashuv motividan o'zi uchungina emas, ko'pchilikka manfaatli xulosalarga keladi. Chori Avaz nafaqat shoир yoki tarjimon, balki adabiyotshunos olim ham edi. Ushbu esseda ilmiy tafakkur va ijodiy taxayyul uyg'unligi, ayniq-sa, yaqqol ifodalangan.

Esse muallifning roman qahramoni bo'lgan shirin, ajoyib qiz hayotini uzoq kuzatgani, uning ulg'ayib qolishi hecham istamagan, ammo hayot unga o'chakish-ganday, bu qiz yelquvar poyezdde, yo'q, tayyoradek, shamoldek, yeldekk, nurdekk tez ulg'aya borgani tasviru bilan boshlanadi. "O'n besh yoshli qizcha birdan farishta-ga aylanib qoldi. Rashkdan, hayotning riyokorligi-yu in-sonning o'z mayllariga qulligidan. Aslida, bular mayda narsalar. Qizcha, to'g'rirog'i, haqiqatning og'irligidan farishtaga aylanib qoldi". Chori Avaz roman qahramoni bilan birga quvonadi, birga iztirob chekadi. Baxtsizlarga baxtsizlik, baxtiyorlarga esa baxt ato etib kelgan qari, nayrangboz hayot sinovlaridan qadam-baqadam birga o'tib boradi. Daqqaqayin ulg'aya borgan, osmondek oyli, quyoshli, yerli, to'rt faslli, chaqmoqli, qorli, yomg'irli, saxovatli osmondek yuksalgan qizning haqiqati ham daqqaqayin og'irlashib bordi. U kimgardir tomonidan gurkiran o'sayotgan chakalakzorga aylantirilgan, ya'ni hirs-u hasad, g'iybat-u bo'hton, fitna-yu fasodlar bilan to'ldirilgan hayot imtihonlariga dosh berdi. Bu chaka-lakzorda na bir chiroq, na bir so'qmoq bor, ya'ni u yasha-gan jamiyat illatlarga to'liq. Haqiqatning ko'ziga tik

# UMR - FONIY,

yaraydigan, mazlumming dodini tinglaydigan biror kimsa yo'q. Chori Avaz avval ayoldan farishtaga, keyin esa farishtadan ayolga aylangan, xiyonatga diyonat bilan javob bergen qizning ruhiyatida kechgan iztiroblarni o'z qalbi-da his etgani yetmagandek, o'quvchini ham bunga sherik qiladi.

Shoirning: "Inson yo'li uzun emas. Har bir inson yo'lining so'ngida bir uyum tuproq bilan belgi qo'yishadi. Ammo hech kim o'z yo'lining so'ngida o'sha bir uyum tuproqni o'z qo'llari bilan uya olmaydi. Buni boshqalar o'zlarining behad parishonxitotliklaridan saqlanish uchun ado etadilar. Inson o'z yo'liga qo'yilgan bu belgidan boshqa hamma to'siqlardan o'ta oladi", degan so'zlarida katta hayot falsafasi va ijodkorning o'z qismati ifodalanganini ta'kidlash kerak. Kitobning "Nasaf" nashriyotida chop etilgan 1992-yilgi nashri nishona nusxasi Chori Avaz ToshMI ikkinchi shifoxonasida umrining oxirgi kunlarini o'tkazayotgan kezda olib kelingan. Taqdir taqozosizi bilan o'sha lahzalarda shoirning yonida bo'lganmiz. Yuqorida-gi hikmat muallif dastxatida kitobning orqa muqovasiga muhrlangan edi. Afsuski, tuproq uyumi haqidagi teran falsafiy fikrlar bir necha kundan keyin Chori Avaz umrining yakunida o'z tasdig'i topdi. Ijodkorning o'z bitigi bilan taqdir bitigi uyg'unlashib ketdi....

Esseda asar qahramoni hayot baxtsizliklaridan baxt izlashi, har bir baxtsizlik bilan o'zini sinashi, shu orqa-li yuksala borishi tafakkur nuri va qalb qo'ri bilan ohorli va ta'sirli talqin etilgan. Iztiroblar og'ushidagi qahramon esa: "...o'sha daqiqalarning achchiq alamlariga chidatgan malak sabridan menga ham biroz ber. Men ham azob-larimni, alamlarimni yig'isiz, ohsiz kechiray" deb iltijo qilar edi.

Esse quyidagi tasvir bilan nihoyalangan:

"Ana, u o'z maqsadiga ro'baro' turibdi. Yigirma yil deganda u ana shunday baxtga tuyassar bo'ldi. U dunyo-dagi buyuk kishilardan biri. Ammo uning na so'zlaridan, na bir harakatidan o'ziga bino qo'yishdek nuqson seziladi. Go'yo u odam bolasi emasdeki.

Haqiqatan ham: "U odam bolasi emas, Choliqushi".

Baxtiyorlik shu emasmi?!

Men Choliqushi hayotini uzoq tomosha qildim...

Yurak hovuchlangan...

Nigohlarim Choliqushida...

Vujud unutilgan...

Baxtiyorlik shu emasmi?!"

Dunyoning buyuk bir kishisi maqomiga yuksalish va o'ziga bino qo'yishdek nuqsondan pok bo'lish – vujudi-ni unutish va ruhiyat samolariga ko'tarilish... Haqiqatan, baxtiyorlik ayni shudir.

Bular – esselar. Chori Avaz professional adabiy-tah-liliy maqolalar ham yozdi. Kitobning titul varag'ida ular muallifga xos kamtarinlik bilan "adabiy o'ylar" deb ko'rsatilgan bo'lsa ham, aslida chuqr tadqiqotlar sifatida baholanishga loyiqdır. "Izlanish izlari" va "Ruhiyatni poklovchi she'riyat" sarlavhali ikki maqolasi Rauf Parfi she'riyatni haqida. Dastlabki maqolada shoirning ilk ijodi barmoqdag'i va sarbastdag'i izlanishlar tarzida ikki yo'nali-shda tahlilga tortilgan. Muallif mana bunday yozadi: "Rauf Parfi "Alisher Navoiydan to Abdulla Orifgacha, Aleksandr Pushkindan to Viktor Sosnoragacha bo'lgan she'riyatni o'rganan ekan, qandaydir boshqacha, o'ziga xos kuylash she'riyat shartlaridan biri ekanini uqadi (Ta'kid bizniki – N.J.). Ammo qanday? Bu masala hech bir ijodkor uchun oson hal bo'lavermaydi. O'z ovozini to-pishga intilgan boshlovchi ijodkor ko'p yo'llarga bir-bir "mehmon" bo'lishi aniq. Ijodkorlar faoliyatlarining ana shu davrlarida taqlid bilan yuzma-yuz keladilar. Kuchli-lar taqlidni yengib, olg'a intiladilar". Maqolada Rauf Parfi ijodining dastlabki davrida Usmon Nosir she'riyatidan il-homlangani, hatto ma'lum darajada unga ergashgani aniq misollar asosida ko'rsatiladi. Bu o'rganishlar Rauf Parfiga she'riyat eshigini ochgani xususidagi to'xtamga kelinadi. Uning ijodda kamolga erishish jarayoni chuqr tadqiq etiladi. Bu fikrlar shoirning shoирga bergan ehtirosli baholari emas, professional she'rshunosning nazariy asoslarga tayanilgan teran ilmiy nuqtayi nazari ekanini ta'kidlash kerak. Rauf Parfinning peyzaj lirikasini tahlil etar ekan, muallif mana bunday yozadi: "U mazmun bilan to'yingan ohangni izlar ekan, har bir harfning yuragidan chiqayot-gan tovushlarga, boshqa harf bilan qo'shilganda qanday sado chiqarishiga qulqo tutadi. Evfoniya va omonim kabi

# SO'Z - BOQIY

fonetik hodisalardan, qofiyaning bir necha turlaridan foydalanib, tabiat hodisalarini chuqur o'rganib, she'rlarini badiiy shakllantiradi". Chori Avazning ushbu to'xtamida shoirga xos she'rni injha his etish hamda olimga xos ilmiy yondashuv mezonlari sintezlashgani kuzatiladi.

Shundan keyin Rauf Parfining Shekspir ijodida haddi a'losiga ko'tarilgan sonet, qadimgi fransuz she'riyatiga xos rondel, yapon she'riyatni tajribalari asosida yaratilgan tanka, xokku singari she'riy shakllarda erishgan yutuqlari tahlilga tortilgan. Bu tahlillar, birinchidan, Chori Avazning jahon she'riyatni nazariyasiga doir ilmiy asarlarni sinchiklab o'rganganidan dalolat bersa, ikkinchidan, Rauf Parfi ijodida ushbu she'riy shakllar milliy barmoq vazni, umuman milliy ruhiyat bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'lishi injha kuzatishlar asosida isbotlangani bilan qimmatlidir. Masalan, rondel haqida fikr yuritar ekan, muallif birinchidan ikkinchi bandlar to'rt misradan, uchinchi band esa besh misradan iborat bo'lishi, bundan tashqari, ayrim satrlar o'z holicha yoki biroz o'zgarishlar bilan takrorlanib kelishiga doir shakliy talablarni eslatib o'tadi. Mana bu xulosa esa Chori Avazning tadqiqotchilik salohiyati yuqori bo'lganini tasdiqlaydi: "Lirik qahramonning ma'lum bir holatini 13 satrda ifodalash shoirdan teran fikrashni talab etadi. Aynan yoki o'zgarishlar bilan takrorlanadigan satrlar nozik didni; mazmunni aniq yetkazadigan tuyg'uli so'zlar va qofiyalar axtarishni talab etadi. **Bu shaklbozlikka olib boradi deb qo'rmaslik kerak. Negaki, no'noq shoir qanday shaklda yozmasin, no'noqligicha qolaveradi!**" (Ta'kid bizniki – N.J.). Chori Avaz Rauf Parfining bu boradagi yutuqlarini "Bu kun mening yuragim bo'm-bo'sh" rondeli tahlili asosida isbotlaydi. Shoiring she'riyatimizni yangi bir she'riy shakl bilan boyitganini ta'kidlaydi. Yapon "tanka"sin milliy she'riyatimizdag'i ruboysi bilan qiyoslar ekan, ularning o'ziga xosliklarini aniq-tiniq ko'rsatib beradi. Ruboysi ko'proq falsafiy xulosa va mushohadakorlikni mujassam etsa, "tanka"da xulosasiz falsafa va lirik tuyg'u ifodalanshi, "tanka" texnik jihatdan ruboysi dan ko'ra erkinroq ekan boi she'riyatimizning yangi shakli sifatida o'zlashtirilsa, maqsadga muvofiq bo'lishi haqidagi fikrlar Chori Avazning ilmiy tafakkuri yuksak ekanidan darak beradi. Muallif tahliliy fikrlarini dalillashda rus adabiyotshunoslari N.Konrad va A.Belinskiy, litva shoiri E.Mejelaytis, o'zbek ijodkorlaridan Abdulla Oripov va Tilak Jo'ra adabiy-estetik qarashlariga murojaat etadi. Shuning barobarida, mana bu tarzda tanqidchilarga e'tirozlarini ham bildiradi: "Bizning munaqqidlarimiz o'z asarlarida she'riy shakllar va vaznlar haqida deyarli to'xtalmaydilar. Agar ular bu masalalar allaqachon hal etib bo'lingan deb o'ylasalar, shakl va mazmun birligi mohiyatini yaxshi anglamagan bo'lib chiqadilar. She'riyatimizda yangi paydo bo'layotgan va bo'ladigan hodisalarga nisbatan beparvolik qilgan bo'ladilar".

Chori Avaz fikricha, shoirlar ikki toifaga bo'linadi: a) tadqiqotlar bilan shug'ullanadigan va b) bunga e'tiborsiz. Tadqiqot bilan shug'ullanish deganda u ilmiy darajaga intilishni emas, o'z adabiy-estetik olamini muntazam boyitib borishni nazarda tutadi. Hozirgi kunda haqiqiy ma'nodagi tadqiqotlar bilan shug'ullanmay turib ham, ilmiy darajaga da'vogarlik qiladigan "shoir"lar ko'payib ketdi. Chori Avaz esa havas qilarli nazariy bazaga va tadqiqotchilik mahoratiga ega ekanimi maqolalari bilan isbotlagan bo'lsa ham, ilmiy daraja olishga intilmagan. U Abdulla Oripov, Rauf Parfi va Tilak Jo'ra misolida tadqiqot bilan chinakam shug'ullanadigan shoirlar badiiy ijodda ham yuksak marjalarni egallay olishi haqida so'z yuritadi. Shu asosda "... o'rtamiyona, tadqiqotlar bilan shug'ullanmaydigan shoirlar ko'payib borayotgan bir paytda Rauf Parfi izlanishlariga sal parishonlik bilan yondashilganlik sezilishi"ni, u jahon ilg'or she'riyatining eng yaxshi tajribalarini puxta o'rganib, o'zi ham o'shalar darajasida tura oladigan asarlar yaratgani alohida ta'kidlaydi.

"Ruhiyatni poklovchi she'riyat" maqolasida she'riyatimizda yangi yo'l ochgan shoir Rauf Parfi ijodiga sotsialistik realizm qoliplari asosida yondashib, asl mohiyatga zid baho bergan o'sha davrning nomdor adabiyotshunos olimlari va munaqqidlari bilan bahsga kirishib, o'z ilmiy qarashlarini ishonarli dalillay olgani Chori Avazning qat'iyatlari va mahoratli she'rshunos bo'lgani isbotidir. Uning fikricha, har uchala munaqqid (o'sha davrning nomdor olimlari – N.J.) she'rning na kompozitsiyasiga, na qaysi zamon – o'tganni, hozirgimi, kelasi zamoni – ifodalananayotganiga e'tibor berishadi. Shu bois she'r mazmuni butunlay o'zgartirib tahlil etiladi.

Chori Avaz badiiy asarga yuzaki yondashgan, tagmatnda ifodalangan yashirin ma'nolarni uqmagan, "men nima deyman-u qo'bizim nima deydi" naqlidagi kabi she'rga unda mavjud bo'lmagan butunlay teskari mazmun "yuk-lagan" munaqqidlarni tanqid qilish bilangina cheklanmaydi. Rauf Parfi she'rlarini so'z san'ati qonuniyatlaridan, lirik ke-chinma, badiiy obraz tabiatini va falsafiy-estetik tafakkur mezonlардан kelib chiqib qanday tahlil etish kerakligini amalda ko'rsatib beradi. Jumladan, "Tong otmoqda..." she'ri borasidagi sayoz fikrlar bilan munozaraga kirishar ekan, qarashlarini ilmiy mantiq asosida quyidagicha dalillaydi: "Bir tomonda Yer sharini yarador etgan va tong mahv eta-yotgan tun, ikkinchi tomonda yarador, ammo "Boshlarida yashil chambarakli (yashillik – abadiyat timsoli)" Yer shari, tong, quyosh, nurlar va odamlar. Tong uchala munaqqid o'yylanidek Yer sharini emas, o'zining va bizning azalay dushmanimiz bo'lgan tunni quyoshni zambarak etib otmoqda, yashillik, hayot manbayi – yerga bu jangda ko'mak-lashmoqda. Uchala munaqqid "yashil chambarakni", eng muhimi, tong otayotgan o'qlarga, ya'ni tongga yuragini tutayotgan odamlarni unutib qo'yishadi. O'z oldilariga "tong o'q otib hayot manbayi yerni yaralayotgan bo'lsa, odamlar nega unga yuragini tutadilar?" deb savol qo'yaydilar. Shoir "Odamlar shu tongga yuragini tutadilar", deb uning tunga qarshi odamlar uchun kurashayotganiga ishora qiladi. Tong ezgulikning to'pchisiga – kurashchisiga (Tongning ramziy ma'nosi faqat bugina emas), quyoshni shu ku-rashching quroli – zambaragiga o'xshatadi".

Shoiring mazkur maqolasida yana quyidagi ahamiyatlari tanqidiy va tahliliy fikrlar ilgari surilgan:

- munaqqid nazmdan ocherkdagi aniqlikni talab etyapti. Bunday talab she'riyat nazariyasidan bexabarlikni ifoda etadi;
- Rauf Parfining aksar she'rlarida esa, shu jumladan "Yoshlik zangor fasl..." she'rida ham shoir qarashlarini, g'oya yashiriladi, o'quvchiga ishonib, yurakdag'i butun dard obrazli ifoda etiladi. Bu xususiyat san'at asarlariga joziba qo'shadi;
- shoir aytmoqchiki ("Bir lahza dostoni" she'rida – N.J.) bir lahza o'zligini yo'qtgan – o'z e'tiqodidan chekingan, qarshi borgan, sotqinlik yoki xoinlik qilib qo'ygan kishi o'sha lahzadan boshlab o'zligidan butunlay mahrum bo'lishi mumkin. Unday odam "yaproq kabi oyoq ostida xazon" – nest-nobud bo'lishi, kulga aylanib qolishi mumkin. Hammaga ayonki, bunday odamni o'zligiga qaytarish jarayoni atrofdagilar uchun og'ir kechadi. Xuddi ushbu satrlardagi holat she'rning mohiyatini tashkil etadi;
- Rauf Parfining lirik qahramonlari ideal ma'nodagi soflikka, hayotga tashna, o'z yo'lidan qaytmas va e'tiqodida sobit, bezovta va kurashchan. Ular dunyodagi har qanday g'am-u kulfatga beparvo qarab turolmaydilar. Dunyoning kelajagiga o'zlarini javobgar biladigan kishilardir.

Chori Avaz tadqiqotchilik mahoratining olmos qirralari "Yuzma-yuz" bilan yuzma-yuz" maqolasida, ayniqsa, yaq-qol namoyon bo'ladi. Bu nimalarda ko'rindi? Birinchidan, u fenomenal shoir Abdulla Oripov ijodini eng kichik to'rtligidan yirik dostonlarigacha to'liq biladi va yaxlit tizim sifatida tasavvur eta oladi. Shoir she'riyatining tomir urishini nozik his etadi. "Yuzma-yuz"ni tahlil etar ekan, maqsadni avvaldan aytish shoiring o'ziga xos uslubi ekaniga, "Pushkin", "Onamga xat", "Albomga", "Men nechun sevaman O'zbekistonni?", "Temir odam", "Asrimiz odam" kabi she'rlari ham shu uslubda bitilganiga urg'u beradi. Jumladan, shoir "Onamga xat" she'rini "Qaytgim keldi, onam, yoningga, Yuragimda ismsiz dardlar" deb boshlab, so'ng yuragidagi "ismsiz dardlar"ini ifodalasa, "Temir odam" asarini "Bir haykal turibdi, U – Robot emish" deb boshlab, gap nima haqqa ekanini shu bilan anglatishi bunga dalil sifatida keltiriladi. Bu o'ziga xos uslub "Yuzma-yuz" she'riga kelib yanada sayqallanganini, she'r kompozitsion qurilishi, dinamikasi, ohangi, obrazlar dunyosi, hayot muammolarini aks etirishi jihatdan yangi bir darajaga yuksalish ekanini aniqlaydi.

Maqolaning ikkinchi yutug'i muallifning "Yuzma-yuz" tahlili orqali Abdulla Oripov she'riyatiga xos badiiy-estetik qonuniyatlarini ko'rsatib bera organida namoyon bo'ladi. Jumladan, xarakter yaratish, asosan, sujetli asarlarga xosligi, poeziyada bunga erishish birmuncha mushkul ekan haqida so'z yuritgan Chori Avaz zakovatli sinchi sifatida o'z oldiga katta maqsad qo'ygan shoirgina sujet injiqqliklarini yengib, uni asarning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan votaga aylantirishi va shu asosda xarakter yaratishi haqidagi

ilmiy-nazariy xulosaga keladi. Xarakter, uning fikricha, lirik asarning xalqchilligini va milliyligini ta'min etishda, g'oya ni o'quvchiga mumkin qadar to'laroq yetkazishda beqiyos ahamiyatga ega. Badiiy obrazda ifodasini topgan xarakter asarning ta'sir kuchini hech bo'limganda ikki hissa oshiradi: avvalo, xarakterning o'zi bevosita, so'ng tasavvurda jonlangan obraz orqali. Shu asosda "Yuzma-yuz" she'riyning muvaffaqiyatlaridan bira lirik qahramon xarakterining ishonarli va o'ziga xos dinamika bilan yoritilganida ekani ni aniqlaydi. Muallif she'rda xarakterning mukammalligi ikki xususiyat – birinchidan, voqelikning badiiy tasvirida, ikkinchidan, lirik qahramonning unga munosabatida namo-di bo'lishini tahlillar asosida isbotlaydi. She'rdagi:

*Nahotki, dunyoda haqsizlik mangu,  
Nahotki, odamzod qilingandir og?!  
Nahot, o'sha Freyd haq bo'lsa, yolu,  
Nahot, qotil bo'lsa o'sib chaqaloq?!* –

misralarini keltirar ekan, mana bunday ahamiyatlari xulosaga keladi: "Freyd bilan bo'lgan bahsda lirik qahramon xarakterining muhim qirrasi ko'rindi. Freyd bugungi insonni ibrido odamdan farq qilmaydi, deb hisoblaydi. Inson ongiga mutlaq (o'zgarmas) narsa sifatida baho beradi. Lirik qahramon esa inson faoliyatini yuksalish, o'zligini anglash sari harakatlanishda, deb biladi". Bunday fikrga kelinishi Chori Avazning, avvalo, "Yuzma-yuz" dagi Abdulla Oripov estetik konsepsiyasini teran anglaganidan, ikkinchidan, Freydning psixanaliz nazariyasi bilan qiyoslab, ular falsafiy qarashlaridagi tafovutni aniq-tiniq ajrata olganidan dalolat beradi.

Chori Avaz maqolasining uchinchi yutug'i "Yuzma-yuz" dagi "yulduzni kashf etib avom nom olgan xalq" va "rangpar singil" obrazlariga yuklangan ijtimoiy-falsafiy mohiyat teran yoritilganidir. Shoiring o'z xalqi o'tmishi bilan "Yer yuzida zulmat-u vahshat hukmronlik" qilgan zamoni qiyoslagani zamirida faqat xalqinigina emas, butun insoniyat hayotidagi ziddiyatni o'ylashi aks etgani, "yoshlik sofligiga" qaytayotgan dunyoning kelajagi uchun qayg'urishi, qismdan butunga, oddiydan murakkabga borish tabiatning temir qonuni ekanidan kelib chiqib, kela-jak qarhisida murakkab masala ko'ndalang turgani va bu muammoni yechmoq uchun xalqlar tarixini puxta o'rganish zaruratin uqtirishi kabi xususiyatlar olim nigohi bilan oshib beriladi. Bunday tashqari, "Yuzma-yuz" dagi "birovlar", "xudbin tengdosh", "ko'lmak davra" singari obrazlarning badiiy-falsafiy funksiyasi tahlil etiladi. Muallif fikricha, ular o'tmishdagi zulmat-u vahshatlarning sarqiti emas, taqdirning erkatalishi natijasida paydo bo'lgan va paydo bo'layotgan erkatoylar, chiroybozlar, to'qlikka sho'xlik qiluvchilar sifatida tasvirlangan.

To'rtinchidan, maqolada "Yuzma-yuz" va undan keyin roq yaratilgan "Noma'lum odam" she'rlarining lirik qahramonlari xarakteri qiyosiy jihatdan chuqur tahlil etilgan. Xarakteridagi ayrim xususiyatlarni istisno etganda, ular bir-biriga yaqin turishi, noma'lum odamni bilimdonligi, zukko va donishmandligi, daholarga xos tiniqlik va sokinlik borligi, fe'li ummondek kengligi, atrofidagi odamlar ruhiyatini va hayot tarzini, taraqqiyotni chuqur his etishi, keksa va tajribali ekanji jihatidan "Yuzma-yuz" qahramonidan ustun qo'yish ham mumkinligi aytildi. Ammo noma'lum odam insonning taraqqiyotdagi rolini o'z falsafasi bilan rad etishi, insonga ijtimoiy emas, biologik tip sifatida qarashi nuqtayi nazaridan kurashchanlik xususiyatiga ega "Yuzma-yuz" lirik qahramoniga yeta olmasligi tahlillar asosida dalillangan. "Asrimiz odam" va "Yuzma-yuz" she'rlari qahramonlari xarakteri ham xuddi shunday qiyosiy tahlil etilgan va muhim umumlashmalar chiqarilgan. Bular bar-chasi Chori Avazning adabiyotni yaxlit tirik organizm sifatida tasavvur etgani, uning yurak urishini injha qilgani, badiiy so'zning shaxs kamoloti va jamiyat ravnaqiga katta ta'sir ko'rsata olish qudratini teran anglab, tadqiqotlarida chuqur ilmiy mantiq asosida dalillay bilgani isbotidir.

Xulosa sifatida Chori Avaz botin diydasi ochiq, tuyg'ulari sof va tiniq, tafakkuri teran va o'tkir, fahmidida mezoni bor ijodkor va tadqiqotchi bo'lgan, deyish mumkin. Ana shunday ijodkorlargina avlodlar qalbi va shuuri-ga chaqmoqdek ta'sir ko'rsatadigan, zamonlar o'tsa-da ahamiyatini yo'qotmaydigan adabiy-ilmiy meros qoldira biladi. Ana shunday ijodkorlargina asarlari bilan millat estetik tafakkurining yuksalishiga asrlar osha xizmat qilmog'i mumkin. Ayon bo'ladiki, inson umri fonyi bo'lsa-da, agar o'zidan tirik so'z qoldira bilsa, ezgu nomi yuzyillar osha yashayajakdir.

**Nurboy JABBOROV,**  
filologiya fanlari doktori,  
professor

Millat mulki

# “XOLDORXON” DOSTONINING KOMPOZITSIYASI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR



“Xoldorxon” “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlardan hisoblanib, ancha yirik hajmga ega (437 bet). Ergash Jumanbulbul o‘g‘li tomonidan kuylab kelingan bu doston 1927-yili Samarqandda yozib olingan. Uning bosh qismi Hodi Zarif tomonidan, qolgan qismlari shoirning o‘z qo‘li bilan yozilgan.

Doston “Xoldorxon” deb nomlansa-da, Qirim podshohi Xoldorxon asarda faqat asosiy epik voqealar ning sababchisi va “katalizator”i sifatida ishtirok etgan. An‘anaga ko‘ra, bosh epik qahramon Go‘ro‘g‘li bo‘lib, u asosiy figura, asarning boshlanishida ham, eng oxirida ham uning ta‘rif-u tavsifi beriladi. Bu yerda, aytish mumkinki, dostonning nomlanishi shartli, chunki ta‘kidlaganimizdek, Xoldorxonning epik voqeliddagi roli ancha zaif va cheklangan.

Ushbu epos to‘g‘risida V. M. Jirmunskiy, H.Zaripov kabi olimlar fikr bildirib o‘tgan bo‘lsalar-da, u yaxlit ilmiy tadqiqot doirasiga tortilmadi. Faqat ayrim masalalarda dostonga murojaat qilingan. Sh. Turdimov “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlaridagi Ahmad Sardor obrazi haqida to‘xtalganda “Xoldorxon”dagi Ahmad Sardorni ham mavzu yuzasidan tilga olib o‘tadi. “Xoldorxon” dostonining ayrim leksik xususiyatlari haqida tilshunoslikka oid maqolalar ham vujudga kelganini qayd etish joiz.

Mazkur doston nazariy jihatdan romanik deb hisoblansa-da, bizningcha uni qahramonlik dostonlari sirasiga kiritish mumkin. Dostonda jang tasvirini ifodalovchi epizodlar ham talaygina. Ushbu maqolamizda “Xoldorxon” dostoni to‘g‘risida ma‘lumotlar berib uni ilmiy tadqiqot doirasiga tortish masalasini ko‘tarish fikridamiz.

Dastlab dostonning kompozitsion qurilishi to‘g‘risida. Y.S.Kotlyarning “Lianja va Nsongo haqida” (G‘arbiy Afrika, mongo qabilasi) eposi bo‘yicha yaratgan sujet sxemasini “Xoldorxon” dostoniga nisbatan qo‘llaymiz. Doston sxemasi muayyan mavzularni o‘z ichiga olgan quyidagi asosiy bloklardan (Y.S.Kotlyar atamasi) iborat:

## I. Tarix avvali.

- 1.1. Qahramonning ta‘rifi.
- 1.2. Qirim podshosining to‘y boshlashi va to‘yga Go‘ro‘g‘li hamda yaqinlarining taklif etilishi.
- 1.3. Qirimga borgan Avazbekning to‘ydan norozi qaytishi.

## II. Tarix.

- 2.1. Avazbekning qistoviga ko‘ra, Go‘ro‘g‘li boshchiligidagi qo‘shinning Qirimga g‘azo – or-nomus uchun urushga jo‘nashi.
- 2.2. Go‘ro‘g‘lining Ahmad Sardorni Chambil himoyasi uchun yo‘ldan ortga qaytarishi.
- 2.3.1. Ahmad Sardorning Chambilga hujum uyuşdırishi, yengilib qochgan Og‘a Yunus tarafdarlarini ta‘qib qilib berib qirg‘iz eli bilan jangga kirishishi.

2.3.2. Go‘ro‘g‘lining Xoldorxon bilan jangi va g‘olibiyyati.

2.3.3. Go‘ro‘g‘lining Xoldorxonga Rum Qaysaridan yordam olishi uchun imkon berishi.

2.4.1. Qirg‘iz Xidirali huzuridagi Og‘a Yunus parining Hasan Chopson madadi bilan Ahmad Sardorni yengishi.

2.4.2. Go‘ro‘g‘lining Qaysarshohni o‘ldirib, Xoldorxoni hal qiluvchi jangda yengishi va yurtga qaytishi.

2.5.1. Hasan Ko‘lbarning dashtda uxlab qolishi va Qaysar qo‘shinlarining uni bog‘lab Rumga olib ketishlari.

2.5.2. Yunus va Misqol parilarning Hasan Ko‘lbar o‘g‘li Samandar polvonha otasi haqida xabar yuborishlari va uning o‘z otasini qutqarishi.


## III. Yakun.

3.1. Taka-yovmit elida g‘olib Go‘ro‘g‘lining qaytishi munosabati bilan katta to‘y berilishi (*To‘yda Ahmad Sardorning kechirilishi*).

3.2. Go‘ro‘g‘libekning ta‘rif-u tavsifi.

Keltirilgan 13 ta blokdan ko‘rinib turibdiki, asosiy epik voqelik ichida bir emas, bir necha voqealar zanjiri mavjud. Rus folklorshunosi V.Y.Propp yozganidek, “Epos va ertaklarda voqelik, asosan, qahramonning uydan chiqib ketishi bilan boshlanadi. Qahramonning yo‘li eposning o‘q chizig‘idir. Bu kompozitsiyaning qadimgi shakli”. Dostonlar, ko‘pincha bosh qahramonning yo‘lga chiqishi va (*g‘olib bo‘lib*) qaytishi voqeasi (*yoki yo‘lga chiqib bitor yurtni egallashi*) bilan tugashi mumkin. Ya‘ni, yagona syujet chizig‘i (*va ba‘zan o‘zbek dostonlarida bo‘iganidek, shu asosiy voqelikka bog‘liq yana bir-ikkita qo‘shimcha voqea*). Murakkabroq tuzilgan sujetlar, umuman olganda, keyingi davrlarda yaratilgandir.

“Xoldorxon” dostonida ikkita sujet liniyasini ko‘rish mumkin: Xoldorxon va Go‘ro‘g‘li bilan bog‘liq voqealar chizig‘i. Ular, ko‘rib o‘tilganidek, keshshadi, ya‘ni Xoldorxon mag‘lub etiladi, Go‘ro‘g‘li liniyasi shakllanishda davom etadi. Dostonda Xoldorxon bilan bog‘liq voqealar tizimida uning Rum qaysarini yordamga chaqirishi, Rum qaysari qo‘shinlari voqealarini tizimida esa ularning Hasan Ko‘lbarni Rumga olib ketishlari bilan bog‘liq ichki epik voqealar joylashtirilgan(1). Asosiy Go‘ro‘g‘li voqealarini tizimida Ahmad Sardorning Taka-yovmit yurtiga urush boshlashi (*umuman, “Xoldorxon” jangnomda dostonlariga yaqin*), Hasan



Ko‘lbarni qutqarish uchun Yunus parining Samandar polvonni jo‘natishi(2) va bu voqeliklarning barchasi berilajak katta to‘y (*To‘y munosabati bilan Ahmad Sardorning tarafdarlari Go‘ro‘g‘libekdan uzr so‘rashi va bek ularni kechirishi*) va Go‘ro‘g‘lining tavsifi bilan yakun topishi.

“Xoldorxon” dostonida bunday ko‘pslonli katta-kichik sujetlardan iborat murakkab kompozitsiyaning mavjudligi uning “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlarning, aytish mumkinki, keyingi “mahsulot”laridan biri, deb xulosa chiqarishimizga imkon beradi.

Bundan tashqari, doston voqealarining boshlanish sababi, motivirovka yorqin rivojlantirilgan: Xoldorxonning Go‘ro‘g‘li va uning yaqinlarini to‘yga taklif etishi va o‘rtadagi kelishmovchilik sabab, Avazbekning or-nomus uchun Qirimga borishga Go‘ro‘g‘lini ko‘ndirishi. Xuddi shu dalil ham dostonni nisbatan so‘nggi paytlarda ishlab chiqilgan, deb aytishimizga asos bo‘ladi. Bu haqda yana V.Y.Proppga murojaat qilamiz: “Epik folklor namunalari (*she’riy hamda nasriy*) tashqi motivirovkaning mavjud bo‘lishi shart emas. Mantiq kerak, lekin majburiy emas. Eposning badiiy mantiqi tafakkurning sabab-oqibat mantiqiga mos kelmaydi... Mantiqiy motivirovkalar keyinchalik kiritilgan, har doim komil ishonech bilan aytish mumkinki, yorqin motivlashtirilgan eposlar motivlash-tirilmagan yoki zaif motivatsiyaga ega bo‘lgan eposlarga nisbatan keyingi davrlarda yaratilgan yoki ishlab chiqilgan”.

Shunday bo‘lsa-da, o‘zak sujet (Sh. Turdimovning iborasicha, bobo sujet) ancha qadimiyl. Bunday deyishimizga sabab:

Birinchidan, o‘zak sujet voqeligi, ya‘ni Go‘ro‘g‘lining “dushman” elga qarshi kurashishi va uning g‘olib keliishi. Bu eng keng tarqalgan qadimiyl epik

voqelik. Mazkur sujetni eng qadimgi qahramonlik, jangnomma, romanik turdag'i eposlarda uchratamiz.

Ikkinchidan, eski afsonaviy tasavvurlarning, animistik qarashlarning, qadimiy an‘anaviy epizodlarning epik tasvirlarini o‘zida saqlaganligi.

Uchinchidan, mifologik personajlarning (dev, pari kabilar), an‘anaviy obrazlarning mavjudligi.

Yuqorida sanab o‘tgan o‘n uchta blok (*va undan ziyod; kichik epik epizodlar bu hisobda yo‘q*) voqeliklari hajm, tasvir usuli jihatdan bir-biridan farqlanadi. Masalan, urush, jang bilan bog‘liq “sahna”lar uzoqroq davom etadi, tasvir uslubida quyuqroq badiiy bo‘yoqlardan foydalaniladi, ayrim boshqa blokdagi voqeliklar, aksincha, bayon bilan qora matnda aytib ketilishi mumkin va h.k.

O‘zak sujet masalasiga qaytsak. Epik dostonimiz, yuqorida aytganimizdek, keyinroq ishlanganidan bo‘lsa kerak, bosh epik voqelikning boshlanishi, “tuguni” yoki motivirovkasi janjalli ziddiyat emas, ancha “madaniyroq” – to‘ydagi kelishmovchilik sabab or-nomus, sha’n uchun kurash masalasi birinchi planga chiqadi. Ya‘ni, maqsad faqat borib o‘zga yurtni bo‘ysundirish emas.

Ikkinchidan, Sardor Ahmadning xiyonati va uning Go‘ro‘g‘li tomonidan kechirilishi, umuman, or-nomus uchun jangga kirilishi kabi axloqiy motivlarga urg‘u berilishi ham dostonning bobo-sujet matniga keyinroq qo‘shilgan motivlari, deb qarash mumkin.

Doston, barcha “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlar singari an‘anaviy, ya‘ni Go‘ro‘g‘libekning ta‘rifi bilan boshlanadi, gap Qirimdagagi tatar podshosi Xoldorxonning saroyiga ko‘chiriladi. Go‘ro‘g‘lining ta‘rifi bu yerkarta yetib kelganidan tatar shohi ularni to‘yga taklif etmoqchi va shu ish bahonasi bilan ta‘rif-u maqtovlarning naqadar rost-yolg‘onligi bilmoqchi bo‘ladi. Dostonning asosiy motivatsiyasi shudir.

Keyingi epik voqelik bir yo‘nalishda ketadi, ya‘ni Go‘ro‘g‘libek Xoldorxon podshoni yengib, uni islom diniga kirgizib (*ammo bunga u qadar urg‘u berilmaydi*), yurtiga qaytadi va g‘alaba sharafiga to‘y beradi.

Ushbu maqolada dostonning faqat bir jihat, asosan, kompozitsiyasi to‘g‘risida fikr yuritdi. Dostonning badiiy tasviriy vositalari, ba‘zi epizodlar ifodasi (*jang maydoni, pahlavonlar kurashi, to‘y tasvirlari*), an‘anaviy personajlar, hatto ayrim olingan obrazlar (*masalan, Ahmad Sardor mazkur dostonda boshqa eposlardan farqli talqinda ega*) va boshqa epik jihatlari kelajakdagil filologik tadqiqot ishlari uchun juda ko‘p materiallar bera oladi, deb o‘ylaymiz.

Yaxshilar yodi

# Mahmud Sa'diy oshiq edi



Ustoz mangu makoningiz nurlarga to'lsin, ilohim! Siz kutgan romanning birinchisini yozdim. Toza milliy – "O'zbek o'tovi" deya siz yaxshi ko'radian sarlavha qo'ydim. Afsuski, siz yo'qsiz. Ha, ustozim-a, qadringiz bilindi. Bilinganda ham juda yomon bilindi.

Qo'liga qalam ushlagan ijodkor-u journalistlar barcha birdek ustoz Mahmud Sa'diy domlani tanir edi. Hech bo'limganda birovlardan eshitgan chiqar. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida Mahmud Sa'diy domla, Ahmad Otaboyev bilan bir xonada o'tirib ishlardi. Shu tahririyatga ishga kelib, ular bilan qadrondonlashib ketdim. Ayniqsa, hikoyalarni o'qigach ustoz mehribonlik ko'rsata boshladи. Bir kuni hikoyalarni to'plab ber-chi, Ahmad ustidan bir ko'rib bersin, deb qoldi. Xur-sand bo'lib o'ntacha hikoyani olib borib berdim. Ahmad aka obdon tahrir qilib berdi. Keyin ikkalasi birga muhokamaga o'tirishdi:

– Yozganlarindan umid bor. Lekin biz boshqa bir narsani o'yладик. Xaraktering-dagi o'jarlik hozircha sening zararingga ishlayapti, agar shuni foydangga ishlata-man desang, qattiq mehnat qilishingga to'g'ri keladi. Albatta, bunda o'z ixti-yoring, o'zbilarmonlikdan kecha bilish, dedi. Shu bilan hikoyalarni kitob qilib chiqardim. Oradan ancha vaqtlar o'tdi. Boshqa gazetaga ishga o'tib ketgandim. Bir kuni ularning oldiga borsam, yana yozayapsanmi, deyishdi. Yozmayotganim-ni aytdim. Arzimaydigan narsa uchun qog'oz qoralash shartmas, deb hisob-lagandim. Chunki yozganlarimga hech bir adabiyotshunos fikr bildirmadi. Albatta, Bahodir Karimning munosabatlarini hisobga olmaganda. Bahodir Karim menga dars bergan ustoz, ko'ngil uchun aytgandir, balki. Demak, qalamni pishitish kerak edi. Shunga maslahat so'rab keldim, deya jiddiy turib oldim. Ahmad akaning aytishi-chi, menda adabiyot haqida tushuncha bor-u, yo'l yo'q ekan. Shu gap sababidan, xasga uchqun sachragandek, suhbatimiz jonlanib ketdi. Xullas, boshlovchi ijodkor sifatida modern uslubda yozish ijodkor bo'lishni belgilamas ekan. Birdan sust-lashib qoldim. Ijodkor bo'lish uchun yo'l yo'riq ko'rsatilmaydi, lekin yaxshi yozish uchun maslahatni tinglash va izlanish shart ekanligini tushuntirishdi. Jalon adabiyotida modern yo'ldagi ijodiy asarlarni yaxshi tahlil qilgan mutaxassis Ahmad aka suhbatimizning yakuniy so'zini aytadigan bo'ldi:

– Bu shakldan voz kechib, klassik uslubda ijod qilishga o't, milliy adabiyotimiz ehtiyoj sezgan yo'l – shu. Millatimiz ham klassik uslubdagи asarlarni yaxshi qabul qiladi, – deya gapning lo'ndasini aytди. Bu suhbatdan keyin ular bilan avvalgidek ko'rishardik, suhbatimiz qizg'in tus olardi. Mahmud akani faqat kechki paytgina aniq ishxonasidan topish mumkin bo'lardi. Ishdan qaytayotib ustozni savollarga ko'mib tashlardim. Goho metro bekti ustida soatlab gurunglashib qolardik. Shunday kunlarning birida kutil-maganda savol berib qoldi:

– Shukurni ustozim deb maqola yozib yuribsanmi? Qani, ustozing bo'lsa buni aniqlaymiz, – deya kului. – Shukurdan, gaplaringni bir jumla bilan anglat-chi, nimalarni eshitgan ekansan?

O'ylanib qoldim. Savol o'ta qal-tis. Ochig'i, bir necha yildan buyon ni-

malarnidir tushunib yetarmikan, deya men uchun jon kuydirib yurgan odamning ix-losini qaytarib qo'yishdan qo'rqib ketdim.


– Biz adabiyotdan haqiqatni topamiz, deb adashib ketdik. Yurt mustaqil bo'ldi, iymonimiz o'zimizga qaytdi. Endigi avlod avval haqiqatni topib, keyin adabiyotga kirib kelyapti. Silarga havasim keladi, – degandi sal o'kinch bilan bir gal Shukur aka. Bu gapni eshitgan Mahmud akaning ko'zlarini chaqnab ketdi.

– Shukur bilan adabiyot to'g'risida ko'p sirlashganmiz, – deya gap boshladи ustoz. – U juda katta iste'dod edi. Milliy adabiyotimizga zo'r xizmat qildi. Lekin u hammasini tushunganida ancha kech bo'lgandi. Aslida jahon adabiyotiga chiqadigan qalamni bor edi. Buni o'zi bilardi. Iqrori shunday ediki, Xudoyim bu dunyo hayotining mohiyatini din orqali bandalari-ga bayon qilib bergen ekan. Umrizimning katta qismimi mag'iz emas, po'choq bilan mashg'ul bo'lib o'tkazibmiz, po'choqni mag'iz deya tasavvurda shakllanib ijodkor bo'libmiz. Endi qiyin, mag'izga tish o'tmayapti. Hayot yo'limiz haqiqat yo'li dan uzoqlarda qolib ketgan ekan, deya chin dildan achinib ketardi. Ana shunday aqlli odam edi. Sengaki shu iqrorni aytgan ekan, sonda nimanidir ko'rgan. U oddi odam emasdi.

Shundan keyin ustoz qalbini ochib suhbat quradigan bo'ldi. "Ahmaddan ko'p narsa o'rgansa bo'ladi. Ilming koni. Lekin undan sug'urib olmasang, shunchaki beradigan xilidan emas, – derdi. – Ko'nglida kiri yo'q odamni izlab qolsang, u yoningda har doim ko'rib yuradiganing Bekqul Egamqul bo'ladi. Ko'ngli toza odam, tafakkuri keng, undan hech qachon yomonlik kelmaydi, faqat bir sharti shuki, ta'sirchan, to'g'riso'z fe'ling bor, o'ziga yaqin olsa ham ko'p muloqot qilaverma. Chunki uning beg'uborligiga ishonib qol-sang, hayotda adashasan. Hamma odamlar shunday deb o'ylab qolasanda. Eh, bun-day beg'uborlik hammada ham bo'laver-maydi. Nafsiga do'st bo'lganlar hiylakor bo'lishadi, shunchaki kayfiyat yuzasidan aytigan hazil-mutoyibidan ham katta fojia yasab olib, qasd olishga kirishadi. Bundan yomoni yo'q. Faqat hayotdan siqilib ketgan kezlardagina bu odamni topib kelib suhbatlash, ruhan yengil tor-tasan, g'uborlarin ketadi. Bir sirni aytib qo'yay, u sening dashtlardek jilovlanma-gan jo'shqin tuyg'ularingga shinavanda, shuni ham unutma!".

Bekqul aka ham ko'p yillar shu tahririyatda ishlagan, qadrondonlashib ketganimiz. Oradan ikki-uch yil o'tib suhbatlarini mahsuliga aylangan beshta hikoya olib keldim. Mahmud aka indamay sumkasiga solib qo'ydi. Suhbatlar odat-dagidek davom etdi. Hikoyalarni haqida so'z ochmadim. Ustoz ham ishora qilma-di. Keyinroq ko'rishganimizda birdan gap boshlab qoldi:

– Shu kuni metroda ketayotib hikoya-laringga ko'z yogurtirdim, qiziqib qolib uya borib o'qidim. Hay-hay, uddalay-digan ko'rinasan. Zo'r! Juda zo'r! Hali ham o'sha eski o'zaningga tortish hollari



aytishga majbur bo'lsa, o'sha so'z uning umrida oxirgi kalom bo'lib qolishigacha, bir-bir maydalab tushuntirib berdi. Rosa lazzatlandim. "Xamsa" dostonlaridan boshlab, "O'tkan kunlar" gacha bir bosh-dan misol keltirib chiqdi. Shu suhbatdan ilhomlanib bir necha marta bu mavzuga qo'l urdim ham. Eplolmadim. Hozircha bu mavzuda qalam tebratishga kuchim yetmasligini bildim. Oradan kunlar, oy-lar o'tardi, bir gal ustozning ishxonasiga borsam, stolida kitob turgan ekan. Unda ustoz haqida shogirdlari yozgan maqolalar jamlanibdi. Buni ko'rganim yo'q edi, o'qib ko'rsam maylimi, deb so'rab oldim. Kitobni tutqazib, sen ham bir narsa aytar-san, dedi. Shu kuni uya borishim bilan kitobni o'qib chiqdim, tun yarimlagan mahal qog'oz-qalamni olib yozishni bosh-ladim. Ha deganda, yozganlarim ma'qul bo'lavermadim. Uzoq o'ylanib o'tirib ravishini topgandek bo'ldim: "Mahmud Sa'diy ustozimiz, deya boshladim... Millat ziyorolarining xizmatkori(mardikori) go'yo. U kishi qo'liga tushgan yaroqli darajadagi maqolami, ijodiy asarmi "su-vini" teradi. Jilo beradi. Mag'zini ochib beradi. Agar yaroqsizligini bilsa, muallifning nomi qanchalik ulug' bo'lmasin, sharitta qizil chiziq tortadi. Imkonli boricha ziyorolarining ziyo nurini ravshanlashtirishga tirishadi. O'zi tinimsiz o'qiydi, o'rganadi, talabalarga dars beradi, gazeta va jurnallarda ishlaydi. Piyoda yuradi. Bir oyog'i oqsaydi, qo'shimchasiga, menga o'xshab ortidan ergashgan, boshog'riq muxlisi kammi? Ularga ham vaqt topadi. Lekin hech qachon qator-qator qilib asar yozib, o'zini namoyon qilishga oshiqmaydi. Yozish qo'lidan keladi. Yozganlar ko'p emas. Kim o'zi u – Mahmud Sa'diy? Millat ziyorolarining yaxshi tomonini ko'radi, nuqsonini yashiradi. Nazarimda, Mahmud Sa'diy so'zi va amali bilan millatning eng sevimli farzandlaridan biridir. Ustoz oshiq. Millatga oshiq. Qalbidagi ulug' vor tuyg'usini oshkor qilsa, uning so'nggi ka-lomi shu bo'lur!". Ertasiga ustozni izlab borib topolmadim. Nihoyat hafta so'ngi-da uchrashdik. Yana o'sha metro bektati ustida gurunglasha turib qog'ozni berdim. Bir yarim qog'oz yozuv. Tik turgan joyida o'qib chiqdi. Menga tikilib qaradi. Ko'zlar nurlandi. Kipriklari namlandi. Sen yaxshi yigitsan, buguncha gaplash-maylik, deya ketdi. Keyinchalik kam uchrashdik, telefonda gaplashib turardik. Qishlog'imga ketgandim. Yetti yil yurib qaytdim. 2018-yili yigirmata hikoyam kitob bo'lib chiqdi. Ustozga olib bordim. Universitetda taqdimoti bo'ladi, borib bir xursand qiling, deya taklif qildim. O'zini ancha oldirib qo'yan bo'lsa ham vaqtida yetib keldi. Juda xursand bo'ldim. Bir kuni telefon qilsam, kel ko'rishaylik, deb qoldi. Uchrashib ko'rishdik. Ko'p gurunglashdik.

– Ey qalamkash, hikoya yozishni bas qil, chinakam roman yoz, – dedi. Ancha yillardan buyon mashqini olish uchun xo-maki roman yozaver, deya tavsiya berib kelgan emasmi, birdan maqsadga ko'chdi. Ichim muzladi.

– Aytganingizdek mashqini olib yuribman, hali chog'im kelmayapti, – deya kuldim. Bir dam ma'yus tortdi. Xayolga berildi. Ko'zimga tik boqdi.

– Men-ku qarib qoldim, sen ham yosh emassan, – dedi hafsalasizgina va gapni boshqa tomonga burdi.


Xolmuhammad KARIMIY

## Taqriz

Hayotim davomida olmon tili bo'yicha maxsus ta'lum oлган chet tili mutaxassislar tarixini o'ргансам, 1940-yildan hozirgacha 100 mingdan ortiq mutaxassis tayyorlangan va ularning aksariyati muallimlik bilan umrguzaronlik qilgan va qilayotgan ekan. Armonim – agar shu sohaning dastlabki rahbari bo'lganimda, ana shu barcha olmonshunoslaming har biridan muallimlik bilan birga tili o'рганиlayotgan adabiyotdan hech bo'limasa bittagina katta yo'kchik asar(masalan, ertak yoki hikoyajni ona tiliga tarjima qildirganida, milliy adabiyotimiz qanchalar boyib ketgan bo'ldi). Xuddi shunday orzuni Usmonli Turkiyaning sobiq madaniyat va maorif vaziri mamlakat ozod va mustaqil bo'lgan kunlardan boshlab yo'lgan qo'ygan va dastlabki loyihasi "Ming bir tarjima" deb atalgan ekan.

Shu loyiha asosida jahon adabiyotining eng sara asarlaridan 500 asarni turkchaga va turk millatining 500 sara asarining jahon tillariga tarjimasini amalga oshirgan ekan. Shu kayfiyatda farg'onaliq olmon tili o'qituvchisi va sho'r A'zam Ismoilning olmon adabiyotining zabardast vakili Haynrix Haynenning "Olmoniya. Qish ertagi" dostonining asliyatdan qilgan tarjimasini o'qib chiqdim va quyidagicha xulosalar chiqardimki, ularni Siz aziz gazetxonalar bilan baham ko'rmochiman. Shoyadki, hozirgi chet tili muallimlari armonli orzumdan to'g'ri xulosa chiqarsalar...

Avvalo tarjimon haqida. A'zam Ismoil Farg'on'a pedagogika institutini bitirib, ko'p yillarda qirrali faoliyat yuritdi. Ammo faqat o'qituvchilikning o'zigina bu yigitni qoniqtirmay, jurnalistik va badiyi ijod bilan va oxir-oqibat o'rgangan olmon tili asosida tarjimanlik bilan ham shug'ullana boshlad. U tarjima qilgan asarlar ichida hozircha eng salmoqlisi olmonzabon shoir Haynrix Haynenning "Olmoniya. Qish dostoni" bo'ldi. Ko'sh, u nega aynan shu doston tarjimasiga qiziqdi va unga qanday kirishdi? Bu oddiy havasmidtasi yoki jiddiy ijodi tadqiqotmi ekan, degan kayfiyatda uning tarjimasiga mutolaasi va muhokamasiga kirishdim. Binobarin aksariyat hamkaslarimiz muallimlikdan nari o'tolmay dunyodan o'tayotgan edilardan. Qolaversa bu asarning ruscha tarjimasidan bajarilgan boshqa tarjimasi bilan ham tanishman va O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Sher bajargan u tarjima haqida o'z fikr-mulohazalarimni e'lon qilganman. O'sha tarjimaning qator fazilatlari va unda rusi tili ta'sirida yo'l qo'yilgan ayrim juz'iy xatolarni taqrizlaridam aytib o'tganman. Bu maqolamda esa asarni olmonchadan bevosita o'girgan hamkasbimiz A'zam



# "QISH QO'SHIG'IN BOSHLAR BARALLA..."

## Haynrix Haynenning "Germaniya. Qish ertagi" dostoni o'zbekcha tarjimalarda

Mirtemir va boshqa o'zbek shoirlaridan ko'ra Hayne ruhiyatini ancha aslomyand qayta yaratda olgan.

Ma'lumki, tarjimon qo'liga tushgan asarni dabdurustdan tarjima qilib ketavermaydi. Asl nusxa muallifning hayotini, u yashagan davr tuzumiga, siyosatiga, adabiyotiga, o'sha davr shoirlar ijodiga munosabatini ham o'rganishi kerak bo'ladi.

Olmونhos A'zam Ismoil Haynrix Hayne hayoti va ijodini, uning isyonkor dunyoqarashini puxta o'rgangan. Shoirling o'z davrida jahon satirisining cho'qqisi hisoblangan "Olmoniya. Qish ertagi" dostonining g'oyasini, adabiy jarayondagi o'rni, ahamiyatini yaxshi tushunib olgan. Hayne o'sha davrda o'ttiz oltita mayda gersogliklarga bo'linib ketgan olmon o'kkalarini o'ttiz oltita axlat yashigi" deb ataydi. Uning orzusi Olmoniyani yaxlit, qadratli davlat sifatida ko'rish bo'lgan. O'zining huquqshunos va journalistik faoliyatida shu niyat uchun kurashgan. Reaksiyon shoirlarni o'tkir satiraga olib, tanqid qilgan. Tarjimon ana shunday holat va vaziyatlarni puxta o'rganib, shundan so'nggina qo'l qalam olgan. O'z yurtidan keskin tanqidchiligi tufayli quvilgan sho'r dostonining ilk satrlarini quyidagicha boshlagan:

*Motamsaro noyabr oyi,  
Kun qovog'in uyg'an bir palla,  
Olmoniya sari otlandim,  
Qish qo'shig'in boshlar baralla.*

Bu satrning tarjimasiga qiziqdi va unga qanday kirishdi? Bu oddiy havasmidtasi yoki jiddiy ijodi tadqiqotmi ekan, degan kayfiyatda uning tarjimasiga mutolaasi va muhokamasiga kirishdim. Binobarin aksariyat hamkaslarimiz muallimlikdan nari o'tolmay dunyodan o'tayotgan edilardan. Qolaversa bu asarning ruscha tarjimasidan bajarilgan boshqa tarjimasi bilan ham tanishman va O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Sher bajargan u tarjima haqida o'z fikr-mulohazalarimni e'lon qilganman. O'sha tarjimaning qator fazilatlari va unda rusi tili ta'sirida yo'l qo'yilgan ayrim juz'iy xatolarni taqrizlaridam aytib o'tganman. Bu maqolamda esa asarni olmonchadan bevosita o'girgan hamkasbimiz A'zam

Chitor chalib qizcha kuylardi,  
Ehtiros-la kuylardi hushyor.  
Qoyil qilib aytolmasa ham  
Ko'ngil uzb ketmog'im dushvor.

Bu satrning tarjimasiga qiziqdi va unga qanday kirishdi? Bu oddiy havasmidtasi yoki jiddiy ijodi tadqiqotmi ekan, degan kayfiyatda uning tarjimasiga mutolaasi va muhokamasiga kirishdim. Binobarin aksariyat hamkaslarimiz muallimlikdan nari o'tolmay dunyodan o'tayotgan edilardan. Qolaversa bu asarning ruscha tarjimasidan bajarilgan boshqa tarjimasi bilan ham tanishman va O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Sher bajargan u tarjima haqida o'z fikr-mulohazalarimni e'lon qilganman. O'sha tarjimaning qator fazilatlari va unda rusi tili ta'sirida yo'l qo'yilgan ayrim juz'iy xatolarni taqrizlaridam aytib o'tganman. Bu maqolamda esa asarni olmonchadan bevosita o'girgan hamkasbimiz A'zam

Uyga keldim, elitdi uyqu,  
Allalardi go'yo farishta.  
Qanday maza bizning parto'shak,  
Orom berar, yumshoq, sarishta.

*Mening esa jinim suymaydi,  
Suvoriylar yangi libosin.  
Dubulg'asi po'latdan, uchlik,  
Jiyaklari... O'! Xudo olsin!*

Biron narsani yoqtirmasa o'zbeklar jinim suymaydi iborasini ishlataladi. Yuqoridaq satrda tarjimon jinim suymaydi iborasini juda o'rinci qo'lligan. Xudo olsin iborasini ham. Bular aslyatda yo'q, bu tarjimonning topqirligi va qilgan, o'ziga anchagini ishongan ijdor ekan.

Dostonning uchinchi bobida ham shunga o'xshash hodisani uchratamiz:

*Osongina yulib uchirar,  
Nogoh tursa shamol, qaldoq.  
Bu xomkalla boshingizdag'i  
Dardisarni uradi chaqmoq.*

Bu satrning tarjimasiga qiziqdi va unga qanday kirishdi? Bu oddiy havasmidtasi yoki jiddiy ijodi tadqiqotmi ekan, degan kayfiyatda uning tarjimasiga mutolaasi va muhokamasiga kirishdim. Binobarin aksariyat hamkaslarimiz muallimlikdan nari o'tolmay dunyodan o'tayotgan edilardan. Qolaversa bu asarning ruscha tarjimasidan bajarilgan boshqa tarjimasi bilan ham tanishman va O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Sher bajargan u tarjima haqida o'z fikr-mulohazalarimni e'lon qilganman. O'sha tarjimaning qator fazilatlari va unda rusi tili ta'sirida yo'l qo'yilgan ayrim juz'iy xatolarni taqrizlaridam aytib o'tganman. Bu maqolamda esa asarni olmonchadan bevosita o'girgan hamkasbimiz A'zam

*Tushlar ko'rib uxlaysan yaxshi  
Bizning momiq to'shakda hali.  
Bunda olmon ruhi ham ozod,  
Kishanlarning zulmidan xoli.*

Bu satrning tarjimasiga qiziqdi va unga qanday kirishdi? Bu oddiy havasmidtasi yoki jiddiy ijodi tadqiqotmi ekan, degan kayfiyatda uning tarjimasiga mutolaasi va muhokamasiga kirishdim. Binobarin aksariyat hamkaslarimiz muallimlikdan nari o'tolmay dunyodan o'tayotgan edilardan. Qolaversa bu asarning ruscha tarjimasidan bajarilgan boshqa tarjimasi bilan ham tanishman va O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Sher bajargan u tarjima haqida o'z fikr-mulohazalarimni e'lon qilganman. O'sha tarjimaning qator fazilatlari va unda rusi tili ta'sirida yo'l qo'yilgan ayrim juz'iy xatolarni taqrizlaridam aytib o'tganman. Bu maqolamda esa asarni olmonchadan bevosita o'girgan hamkasbimiz A'zam

*Bog'ichini tortsang kifoya,  
Shu yetarli abjir boltaga.  
U quvonib chirt uzur zumda,  
Bosh dumalab tushar xaltaga.*

*Qirol o'shqirdi rangi oqarib:  
"Daf bo'! Ordona  
qolsin aslahang,  
Bunday uskunaga ishim tushmasin,*

*Xudoym, bo'lmasdi  
o'zing asrasang?*

Bu matnda gap qatl asbobi gil'otina haqida ketyapti:

Hayne Germaniya bo'ylab kezarkan, Vestfaliyani ta'riflab shunday deydi:

*Chegaraga kelganim chog'i  
Ko'ksim tilib bir nima mushtlar,  
Va shohidman, inongum hatto,  
Ko'zlarimdan ogmoqda yoshlar.*

*Olmoncha so'z qulqoqqa inib  
Ko'ksim ajib urdu-da notinch  
Va yig'ladi yurak tushmagur,  
Go'yo shirin o'rtadi sog'inch.*



Xushnud etdi Vestfal shevasi,  
Chuchuk tilin zavqini tuydim.  
O'tkir chog'ir - shirin xotira,  
Og'alarim, men sizni suydim.

Bu shunchaki Vestfal ta'rifi emas. Bu yerda Hayne vatanini naqadar sevishini, o'sha yerlik kishilarni qanchalik sog'inganini ularni xotirlash bilan ifodelayapti, ularning chuchuk tillari bo'lgan shevarilarni ham unutmag'anini, humrat qilishini aytayapti. Bu bilan kidik qoni to'kilgan vatanga muhabbatini izbor qilyapti. Shu holatlarni qayta yaratish tarjimonidan katta mahorat talab qilishi turgan gap. Tahlilni davom ettirib, e'tiboringizni yana quyidagi satrlarga tortmoqchiman:

*Obi rahmat yog'dirsin falak,  
Ekin-tikin zirotting mo'l...  
Urushlardan Xudo saqlasın,  
Ey jasur xalq, doim omon bo'!*

*O'g'onlaring omadin bersin,  
Oson o'tsin sinovdan qavming.  
Nasib etsin qizlaringga ham,  
Alp qomatlari kuyovlar: Omin!".*

Bu satrlarning tarjimasiga tan berishdan boshqa ilojimiz yo'q. "Oson o'tsin sinovdan qavming" umuminsoni haqiqat. O'n uch yillik ona vatandan judolik – muhajirlikda u qanday hayot kechirdi? Nima uchun uning asarlarini taqiqlandi, nafaqat asarlari, hali yozilmagan, yozilajak asarlari, qo'shingizda qurilgan. Ma'lumki, badiyi tarjimada maqol, matnal va iboralarni qo'llash alohida yondashishni talab qiladi. Ishlatilgan maqol yoki matnalning o'girilayotgan tildagi muqabilni, o'xshashi yoki o'rindoshini topish kerak bo'ladi.

Ba'zan boshqa tildagi aynan o'sha maqol mazmunan to'g'ri kelmasligi mumkin. Bu juda nozik masala bo'lib, tarjimonning o'ta zukkolik, bilim talab qiladi. Dostonning o'n olintchi bobidagi mana bu satrlarga etiboringizni qarataшимiz:

*Bog'ichini tortsang kifoya,  
Shu yetarli abjir boltaga.  
U quvonib chirt uzur zumda,  
Bosh dumalab tushar xaltaga.*

*Qirol o'shqirdi rangi oqarib:  
"Daf bo'! Ordona  
qolsin aslahang,  
Bunday uskunaga ishim tushmasin,*

*Xudoym, bo'lmasdi  
o'zing asrasang?"*



Asl nusxani so'zma-so'z beradigan bo'lsak, mana bunday manzara namoyon bo'ladi:

*Qirol so'zimni bo'ldi:  
"Jim bo'l, sening bu asbobing haqda  
Xohlamanay eshitishni ham.  
Xudo saqlasın unga  
ishim tushishdan.*

Tarjimon "o'shqirdi rangi oqarib", "Daf bo'!" kabi so'z va iboralarni ishlatalib, voqeqliki kuchaytirib beryapti. "Ordona qolsin aslahang" – bu o'zbek iborasini tarjimon juda o'rinci ishlatqan, bu bilan tarjimanining ishonarli chiqishiga erishgan.

Doston tarjimasini va tarjimonning mahorat haqida batafsil gapirish ko'p vaqtini oladi. Shuning uchun ayni amaliyatlari joylariga to'xtalib o'tishni topish kerak bo'ladi.

*Kyol – Hagen yo'li besh talar,  
Pruss pulida arzimas to'lov.  
Dilijondan qolimiz, attang,  
Ot yo'g'ida eshak ham ulov.*

Tarjimon bu yerda ham o'zbekcha "Ot yo'g'ida eshak ham ulov" maqolini qo'llab, to'g'ri tadbir qilgan. Doston tarjimonini shu zaylda tahlil qilib chiqish juda ko'p vaqtini oladi. Buni biron tadqiqodchi o'z ilmiy ishiga alohida mavzu qilib olib, ilmiy izlanishlar qilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Tarjimon "Keyin chopar bilsang yaxshi ot", "Qirilishib qirga chiqibmiz", "Xudo xayr bersin" kabi o'zbekcha maqol va iboralarni o'rinci qo'llab dostonning jozibali, o'qishli bo'lishiga erishgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, A'zam Ismoil bu asar tarjimasida o'zbek tili lingvistikasi va poeziyasining bor imkoniyatlaridan unumli foydalanib, oldiga qo'yan maqsadiga erishgan, yaxshi asar yaratgan.

Albatta, ushbu tarjimada har qanday o'girmashni mumkin bo'lgan xato va kamchiliklar topilishi mumkin. Masalan, dostonning sarlavhasida qo'za tashlanadi. Asliyatda asar "Deutschland. Ein Wintermärchen", ya'ni "Olmoniya. Qish ertagi", deb nomlangan, va bu to'g'ri, adekvat tarjima hisoblanadi. A'zamjon esa asar janrini uning nomiga aylantirib qo'yan. Tarjimada bundan boshqa xatoliklar ham uchraydi, biroq bu ommabop gazepta maqolasi matnida kamina tarjimaning kamchiliklariga to'xtalmadim. Buning uchun asarni to'liq ilmiy tahlil qilib, fazilat va nuqsonlarini batafsil tahlil qilib, qilishga bag'ishlangan maxsus monografik tadqiqot talab qilinadi, bu ish maxsus dissertation tadqiqotlar predictiiga taalluqli.

Maqoladan niyatim, bugungi yosh chet tili mutaxassislar xorijiy tillardan olgan bilim, ko'nikma, malaka va layoqatlarini faqatgina muallimlikdagi emas, tarjima sohasida ham ishlatalib, hech bo'limaganda bittagina asarni chet el adabiyotidan o'zbekchaga va o'z adabiyotidan chet tillarga tarjima qilib, mustaqillikka yuz tutib, dadil odimlayotgan Yangi O'zbekiston dejan vatanimizning yutuqlari bilan jahon ahlini tanishitir borsa, shu vatan va shu kasbimiz nonini yanada ko'proq oqlagan bo'lardik. Shu tabarrub ishlarda A'zamjon kabi tarjimon hamkaslarimiz ko'philchil tilbog'chilarga yaxshi o'rnatiladi, degim keladi.

Umidli tarjimon hamkasbimizga esa boshlab qo'yan ijodiy ishlari va tarjimalarini yanada rivojlantirish va badiy tarjimadek murakkab va mashraqatli, savobli ishi va ijodiy izlanishlarini takomilga yetkazishda kuch-quvvat va omad tilayman.

Xurram RAHIMOV,  
O'zDJTU professori

## Taqriz

O'zbek adabiyotida Abu Rayhon Beruniy obrazi talqin qilingan turli janrlardagi yigirmaga yaqin asar mavjud. Bu asarlar qatoriga O'zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning joriy yilda nashr qilingan "Abu Rayhon Beruniy" roman ham qo'shildi. Roman alloma obrazi talqin qilingan boshqa asarlarga qaraganda qator jihatlari bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Jumladan, yozuvchi Beruniy davrini to'laqonli aks ettirishga urinish bilan bir qatorda hazrat Beruniyning hayoti, shaxsiyatini, uning diniy, falsafiy, siyosiy qarashlarini to'laqonli ochib berishga harakat qilgan.

# ABU RAYHON BERUNIY OBRAZI ISAJON SULTON TALQINIDA

Qolaversa, Abu Rayhon Beruniyning ilmiy faoliyati, olib borayotgan tadqiqot ishlari uchun asqotarlik, o'z qo'llari bilan yasagan moddalarning solishtirma og'irliliklarini o'lchovchi asbob, qimmatbaho toshlarning og'irligini aniqlash uchun nozik tarozi, tutash idishlar qoidasiga asoslangan uskuna, yuqori aniqlikdagi usturlob va armilla kabi har xil hajmdagi asbob-uskunalaridan iborat qo'l ixtiolar, aniq ilmiy dalillar bilan ilgari surgan aql kashfiyotlarini asarning boshidan to'xiriga qadar goh sharoit taqozosiga ko'ra voqealar yordamida, goh obrazlar tilidan har xil shaklda ko'rsatib o'tadi. "Abu Rayhon yunon olimlarining yer yuzi tuzilishiga oid asarlarini ham o'qib chiqdi. Qolaversa, uchburchak va to'g'ri burchak nazariyasini ham o'rganib oldi. Qachon qaramay, uni hisob-kitoblar ustida ko'rardim. Rum usturlobini o'lchab tekshirib ko'rgach, temirchi bilan birga, qo'llari kuya-kuya o'z usturlobi va armillasini yasadi" (**Isajon Sulton. Abu Rayhon Beruniy. Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi.** T.: 2023-yil 32-bet). Alloma ajdodimizning ilmiy yo'nalishdagi kashf-u karomatlari, mehnat-u mashaqatlari shu zayl tasvirlanadi. Bu o'rinda Fransyaning sobiq prezidenti Fransua Mitteranning quyidagi gaplari yodimizga tushadi: "G'arbda "Al-Baron" deb nom olgan Sharqning buyuk mutafakkir olimi Abu Rayhon Beruniyning insoniyat oldida qilgan xizmatlari shu qadar buyukki, uning yoniga boshqa biron ta millatning vakilini qo'yib bo'lmaydi. U fanning barcha sohalarida birinchi edi. Jahan ilm-fan tarixini Abu Rayhon Beruniyning ilmiy ishlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi".

Isajon Sulton Abu Rayhon Beruniyning shohlar bilan munosabatiga ham yangicha nigoh bilan nazar soladi. Yozuvchi bu borada o'z salaflariga qaragan da tarixiy haqiqatga to'la yondashishga harakat qiladi. Hazrat Abu Rayhon Beruniy qalamiga mansub bo'lgan, o'zining hasbi holi bayon qilingan quyidagi satr-larga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning amir-u sultonlar bilan munosabati doimiy ravishda kolliziyal tarzda kechgan deyish noto'g'ri bo'ladi nazarmizda.

*Minbarlarga chiqib, oshib martabam,  
O'tdi ne'mat soyasida ko'p onim.  
Boqdi Iroq oilasi sut bilan,  
Men – niholga Mansur*

*bo'lди darmonim.*

*Taklif etdi meni toshidl Vismagir,  
Yoqtirmadim – "Bo'lgil" dedi a'yonim.  
Ma'munlarning avlodidan ul Ali*

*Bo'ldi tabib, hech ko'rmedi dard jonim.  
So'nggi Ma'mun nazar soldi holimga,  
Boshim ko'kka yetkazdi ul sultonim.  
Ne'matini Mahmud darig' tutmadi,  
Ko'rmaslikka oldi doim nuqsonim.*

(**Sherni arab tilidan A.Irisov tarjima qilgan.**)

Abu Rayhon Beruniyning hayoti haqidada xabar beruvchi she'rdan olingan bu parchada amir afrig'iylar, Xorazmshoh ma'muniylar, Sulton G'aznaviy hamda Qobus ibn Vishmagir haqida gap boradi. Isajon Sulton romanda shohlarning alloma bilan bo'lgan munosabatlarini yuqorida she'r va shu kabi manbalarda keltirilganidek bir qadar iliq va samimi tarzda taqlin qiladi. Masalan, Sulton Mas'ud G'aznaviy va Abu Rayhon Beruniy munosabatlari juda yaxshi bo'lgan. Beruniy Mas'ud G'aznaviyiga yoshligidan ustozlik qilgan va keyinchalik o'zining eng yirik asarlaridan biri "Qonuni Mas'udiy"ni unga bag'ishlagan. O'z navbatida Sulton Mas'ud ham ustozining hurmatini joyiga qo'yib unga izzat-ikrom ko'rsatgan. "Shunday qilib Sulton Mas'ud G'aznaviy Abu Rayhonning izzatini ko'kdagi yulduzlar qadar ko'tardi. Unga Bog'i Mas'udiydan alohida bog' ajratdi. U shunday so'lim ediki, barcha havas qilar-di. Sharqirab zilol suvlari oqar, sahniga turli gullar bilan birga, rayhonlar ham ekilgan edi". Yuqorida tasvirdan Sulton Mas'udning alloma ustoziga bo'lgan yuksak ehtiromini ko'rishimiz mumkin. Parchada keltirilgan "sahniga turli gullar bilan birga, rayhonlar ham ekilgan edi" jumlasiga diqqat qaratadigan bo'lsak, yozuvchining sinchkovligi, tasvirda mayda detallargacha e'tibor berishini sezamiz. Manbalarda ta'kidlanishicha, Abu Rayhon Beruniy rayhon gulini juda yaxshi ko'rgan ekan. Hatto ismidagi rayhon qo'shimchasi uning hamisha chakkasiga rayhon taqib yurishi natijasida rayhonli kishi deb atalishiga sabab bo'lgan, degan qarashlar ham mavjud. Sulton Mas'udning shohona tortig'i – bog' ichidagi bog'da turfa gullar qatori rayhonning ham borligi tuhfanning uni oluvchiga yanada manzur bo'lishi ko'zlab qilinayotgan ish ekanligidan dalolat. Hazrat Beruniy hayoti bilan tanish bo'lgan har bir o'quvchi rayhon gulining muallif tilidan berilayotgan matnda alohida ta'kidlanishi bejiz emasligini anglaydi.

Abu Rayhon Beruniy asarlarini, xususan, she'rlarini ixlos bilan o'qib yuruv-chilarining ko'ngliga g'ashlik soladigan ba'zi jumlalar mavjud. Muqaddas, ilohiy

kitob hisoblanmish Qur'oni karimning 111-Masad surasiga ishora qilingan satr-lar nazarimizda roman muallifining ham ko'nglini g'ashlantirgan. Lekin bu g'ashlikni tarqatish uchun yozuvchi badiiy yechim topganligini asardan olingen quyidagi parcha orqali ko'rishimiz mumkin:

"Men nodon, yoshlik chog'imda o'zimning naqadar zakiyligimni ko'rsatish uchun, nasabimni so'raganlarga "Otamni eslolmayman, onam esa "xammalatol-xatob" edi deb javob berardim. Azbaroyi nodonligimdan, halok bo'lgur Abu Lahabning xotini haqidada

*Qo'shrabotlik arboblarni sanagan sanog'idan adashadi. Toshkentdag'i istalgan idoraga bosh suqing – "As-salomu alaykum!" deb bir juqmoxo'r chiqadi. Qo'shrabotning mo'iasi ham ba'zi qasabalarining qasamxo'r rahbarlaridan avlo. Ergash Jumanbulbul, Rahmatulla Yusuf yurti dovrug'ini Ravshan Fayz, Habib Temir, Quvondiq Siddiq kabi taniqli ijodkorlar butun mamlakatga yoydi.*

Qo'shrabot – lalmi joy. Dashtlarida joni tosh giyohlar unadi. Lalmining odamlari temirtilroq bo'ladi. Obidagilar sabrni, jo'mardlikni, tantilig-u qo'li ochiqlikni lalmidan o'rgangan chiqar.

Ana shu yurt farzandi Sobir O'nar sabrni sinovchi sariq saratonni shunday tasvirlagan edi: "Chillada qoq tush mahalli atrof jizillab isib ketar, shirach, qo'ziqu-loq, shuvoq, isiydi, mingbosh, karrak, yantoq, qushqo'nmas boshlariga qo'nib olgan jizillovuqlar kuydiruvchi, ammo osuda ofstob jaziramasiga simfoniya bo'lib bir xil maqomda qo'shiq kuylab yotishar, bu to ofstob qaytib kech tushguncha davom etar, tunda esa baqalar, qora chigirkalar, daraxta o'ralib olgan ilonlar qo'shig'i boshlanardi".

Quvkalla Nurota tog' tizmasining boshlanishi – Parandoz, Beshbarmoq cho'qqisi etaklarida joylashgan. Forish tog'lariga tutashadigan dashtlar erta bahorda – bir maydon ko'kalam bo'ladi. Xudo yomg'irni bermasa, o'n-o'n besh kunda tilla rangga evriliadi. Qattiqroq shamol tursa, sap-sariq xaslar har yoqqa uchib, dashtning qip-qizil to'shi ochilib qoladi. Ana shu qirlar ostida ko'hna qabriston bor. Besh yuz-olti yuz yil burungi zulm qurboni bo'lgan Zulmonota tarixi manbalarda qayd etilmagan, ammo qirlar, soyliklardan ba'zan odam suyaklari chiqadi.

Quvnoqlig-u hazilkashlikni o'rniga qo'yadigan adib Quvkalla ohanrabosiga asir edi. Sobir O'narni yaqindan bila-diganlar qorindoshlar, kindikdoshlarga judayam mehrli bo'lgani haqida gapirishadi. Bolalik xotiralarini uyg'otadigan qishloq, eldoshlar samimiyyati yozuvchiga kuch bergan. Toshkentga kelib binoyiday bokschiga aylangan Sobir O'nar o'smirligida gashtak ko'pkarlardan manaman degan chavandozlardan uloqni tortib oladigan darajada chayir edi. Poytaxtga moslashgan adib keyinchalik ko'pkarida zot ayirmasayam, cho'ponligi o'tgan Uchbuloq tomonlarga ot surib hordiq chiqarardi.

Adib mehri asarlarida bo'ladi. "Otam-zamon hangomalari"ni o'qigan o'zbek Abdullasoy, Solisoy, Burgutlini, o'tirikchi Faqir boboni, mehnatkash, qadoq-qo'l, o'rfe'l Ovloqul otani, baytal minib ko'pkari chopgan Xidir chavandozni, jindor Egamqul boboni, "polvon" Adash chechani, qushnoch Musal momoni yaxshi ko'rib qolishiga shubha qilmayman. Hazilkash, qitmir dashtliklarning mehr-muhabbati tasvirlangan bu samimiy turkum adibning dardli qalbidan otilib chiqqan.

Qo'ng'irotlarga xos polvonkelbat adibning publisistik maqolalari, adabiy suhbatlari ham xiyla zalvorli. Chingiz Aytmatov, Odil Yoqubov, O'lijas Sulaymonov, Andrey Voznesenskiy publisistika-siga taassub qilib qalam charxlagan Sobir O'nar qadrdon qishloq doshlari hayoti, urf-odatlari, o'zaro munosabatlarini "Qismat o'yini", "Ma'naviyatimiz qadr-qiymati", "Xoja Nonber Ota yoxud Quvkalla qishlog'i tarixi", "Bolalik bahor-

gi u kalimalarni o'z onamga nisbatan qo'llardim. Eslasam, yuragim zardoba ga to'ladi. Boshqa onalarning o'g'illari menday nodonlik qilmasligi uchun qo'limdan kelgan har qanday ishni qil-sam, deyman".

Shu kunga qadar o'zbek adabiyotida Abu Rayhon Beruniy siymosi gavdalantirilgan o'nga yaqin roman yaratilgan bo'lsa-da, hazrat Beruniyning hayotidan olingan quyidagi real voqeal olerda aks ettirilmagan. Beruniy zamonga nisbatan yaqin vaqtida yashab ijod qilgan olim Nizomiy Aruziy Samarqandiying "Nodir hikoyatlar" deb nomlangan risolasining "Chohor maqola" bobida keltirilgan voqeal qilib Sulton talqinida asarning "Inna illahi va inna ilayhi rojiun" deb nomlangan qismida shunday bayon qilinadi: "Voqeal shunday bo'libdi, buni menga Abu Rayhonning do'sti, faqih Abu Hasan Valvalajiy aytib berdi.

– Hol so'rash uchun Abu Rayhonning uyiga kirdim. Qarasam u jon berayotgan, g'arg'ara bilan nafas olib, ko'kragi siqilayotgan ekan. O'shanday holida menga qarab:

– Sen bir kuni menga "Al-jaddat al-fasida" nima degan eding? – dedi. Men uning qiynalayotganiga rahmim kelib:

– Shunday holatda-ya? – deb so'radim.

– Ey Abul Hasan, – dedi Abu Rayhon, – men bu dunyo bilan xayrashayotibman, o'sha masalani bilmay ketganimdan ko'ra, bilib ketganim yaxshiroq emasmi?

U masala meros hisoblash ilmi haqidada edi. Men unga "al-jaddat al-fasida" hisobini tushuntirib berdim, u bo'lsa uni yodlab oldi va o'zi ham va'da qilgan narsasini menga o'rgatdi. Shu bilan men uning oldidan chiqdim. Hali uya yetmay, yo'lda ketayotganimda Abu Rayhon joni ni Haqqa topshirganini eshitdim...".

Beshikdan to qabrgacha ilm izlashning go'zal namunasini o'z hayoti misolida ko'rsatgan daho zotning o'lim to'shadagi ahvoli Isajon Sulton taqlinida tarixiy haqiqat va badiiy mahorat uyg'unligida tasvirlanganini ko'rishimiz mumkin.

Xullas, dunyo tamaddunida o'chmasiz qoldirgan, eralardagina bir dunyoga kelishi mumkin bo'lgan bunday daho zotning hayoti ijodkorlar uchun qayta-qayta murojaat qilish zarur bo'lgan tunganmas manba hisoblanadi.

Anvar ALLAMBERGENOV,  
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

# QUVKALLANING SOBIR BOLASI



ları”, “Ot choptirsa gumburlaydi tog‘ning darasi”, “Dasht odamlari”, “Odamni orzular ulg‘aytiradi”, “Yozuvchining jonso‘zi” kabi maqola, suhbat, esselarida tasvirladi. “Chambilbelning oydalasi” kitobidagi qissalar va hikoyalarni qahramonlari ham yozuvchi bilgan, ko‘rgan odamlar edi.

“Vijdon” maqolasidagi G‘aybar momo – Xonsuluv – yalqovlik, o‘zib-o‘larchilik, g‘irromlikning dushmani. Odobsizlik qilsa rais janoblariga ham xezlanib qoladigan, elning to‘y-azasida bosh bo‘lib turadigan haybati baland kampir bugun xotiralarda yashayapti. “Momo to‘qsondan uch-to‘rt dovon oshib jimgina narigi dunyoga ketdi. Balki, shu baqiroqdan qutuldik, deganlar ham bordir. Elchilik... Lekin ko‘p yillar mononing o‘rnini to‘ldirib kelgan biror erkakni ko‘rmadim...” deydi adib.

Og‘ir, mulohazalni adib publisistikasi xuddi hikoyalari kabi o‘qiladi. Kengfe‘l adib ellikdan oshib, elga bosh kerak ekan, degan fikrni juda ko‘p uqtirar, asosiy mavzularidan biri sifatida ta‘kidlar edi. “Elboshilar” maqolasida tasvirlanmish Husan Hakimov har elda bor. Ammo, Xudoyqu tog‘a aytmiss – moshinaning zo‘ridan minadigan, qavat-qavat uylar solib, to‘yiga falon ming dollar sarflab artist chaqiradijan, elning o‘chog‘iga qo‘r bo‘lmaydigan korchalonlar ham har joyda topiladi.

Sobir aka elning boshini biriktiradijan, el-yurt tashvishini o‘zining tashvishi deb biladigan odamlar hayotini suyub, hayratlanib hikoya qiladi. El fidoyi boshchi tufayli quadrati ekanini uqtiradi. Maqola va suhbatlardagi bu g‘oya, aslida adibning dil tubidagi pinhona va oshkorra orzulari edi. Adibning beg‘ubor qalb sohibi bo‘lganiga o‘zi bitgan bir misolni keltiraylik: “Men sakkizinchı yoki o‘ninchı sinfdı “Sharq yulduzi” jurnalida yozuvchi Nurali Qobulning “Tubsız osmon” qissasını o‘qib, ho‘ng-ho‘ng yig‘laganman. Talabaligimning dastlabki oylarida fakultetimizda Nurali Qobul bilan uchrashuv bo‘lgan. Hayajonlanganimdan hushimdan ketayozganman. Boshqalar savol bergen, men yozuvchining so‘zlarini tinglaganman, harakatlarini tomosha qilib o‘tirganman”.

Mudom ichida bir qarshi kuch yashashiga iqror bo‘lgan, savodsiz odam bilan hech murosqa qilolmaydigan adibni ijodga, ijod qilishga armon undab turardi. Cho‘pon bolasi ko‘rgan azobni hisobchining yoki bankirning bolasi tasavvuri ga sig‘dira olmaydi. Bolalik xotirasida qolib ketgan haqsizliklari adibni har tomonlama chiniqtirgani rost. “Ona sog‘inchı” degan essesini o‘qiganlar biladi. Essechiligidizning sara namunalaridan bo‘lgan mazkur asar kitobxon qalbini

junbushga soladi: goh kulib, goh yig‘lab o‘qiydi o‘quvchi. Adib butun hasratini mana shu essegaga jo etgan. Sobir O‘narning yurak tovushi, qalb suvrati bor bu esseda: “Otamning ko‘ngli keng edi. Uncha-munchaga narsaga qayg‘urib o‘tirmas, uncha-munchaga jahli ham chiqmas, faqat... shu kambag‘alligimiz, kosamiz oqarmasligi-yu otamning kunu tun ortidan yurib hech ishi yurishmaydigan mollarini tobora yomon ko‘rib borardik. Oshib-toshib borayotgan cho‘ponlar ham bor edi. Keyinchalik men ularning bir nechtasi haqida maqolalar yozdim. Otam boqqan mollar esa bizga faqat kulfat va qashshoqlik keltirardi”.

Sobir aka ustoz Shukur Xolmirzayevga o‘xshab yozilajak asarlar sujetini maqola yoki suhbatlarda aytib qolardi. Masalan, sho‘roning Qo‘shrabotdag‘i o‘tiriklari haqidagi alamli xotiralar, qo‘ldan yasalgan “geroy” Mamadiyor Shosimov – fitrati, siyrati, suvrati tamom o‘sha dar nuqsiga monand to‘ra obrazini tasvirlash rejasini bor edi. “Uyda tinchi bo‘lsin yigitning avval...” nomli maqolasidagi voqeа ham yozilmagan bir hikoya aslida: “Talabalik davrimizda bir do‘stimiz bor edi. O‘ta bilimdon, o‘ta intizomli. Yurish-turishi orastalik, g‘alati bir viqor ufurib turardi. Rus tilini xuddi ona tilidek bilardi. O‘sha paytlar, saboqdan bo‘sh paytlari, adashmasam, nemis tilini ham o‘rganishga kirishgandi. Biz talabalar unga havas bilan qarardik. Hatto ba‘zi birlarimiz unga taqlid qilishga ham urinib ko‘rdik. Ammo eplay olmadik. Bizning taxminlarimizga ko‘ra, o‘sha hamsaboq yigit kelajakda kamida vazir maqomidagi arbob bo‘lib ketishi kerak edi. Ammo... O‘yaganlarimiz puchga chiqdi. O‘qishdan so‘ng ne bir umidlar bilan poytaxtda qolib ish boshlagan do‘stimiz uylandi-yu, asta-sekin suvgaga tushgan toshdek cho‘ka boshladi. Ko‘p o‘tmay ichkilikka berilib ketdi. Uni soch-soqollari o‘sgan, isqirt, aftodahol ahvolda ko‘cha-ko‘yda ko‘rib qolardik. Oxir-oqibat, hamsaboq do‘stimiz ishidan ham haydaldi. Uni oilasidagi nobop muhit, urush-janjallar xarob qildi”.

Sobir Hamza o‘g‘lining kitoblarga kirmagan yana bir maqolasi bor. “Yoshlik” jurnalining 1992-yil 3-4-sonlarida bosilgan “Navoiy bog‘i qanday bog‘?” deb nomlangan bu maqola shunday boshlanadi: “Navoiy bog‘i” deb eshitganmidengiz? Axir, to‘rt yildan buyon shoir-u, adib-u, olimlar tinimsiz qulog‘ingizga javrab turgan bo‘lsa, nahot eshitmagansiz? Bir dovrulqi shoir bundan uch yarim yil burun matbuotda “Agar shu bog‘ qurilishi boshlansa, chiqajak kitobimning qalam haqini hadya etaman” deya katta gapirgani ni-chi? Undan beri qancha suvlar oqdi, deysizmi? Be, suvlar daryolarga emas, daryolar Orolga emas, so‘zlar-u va‘dalar amalga emas, hammasi – havoga “oqdi”.

Maqolada Hoshimjon Qobil qori o‘g‘li boshchiligidagi guruh – yetuk me‘morlar, fan nomzodlari, me‘morchilik fakulteti domlalari taqdim etgan loyiha arzimas sabablar bilan inobatga olinmagani tafsilotlari berilgan. Bordi-yu maqola bugun qayta e‘lon qilinsa, aminmanki, afkor omma Toshkentning ilm-ma‘rifat, adabiyot, san‘at, Islom madaniyati markazi ekanini ko‘rsatuvchi “Ixlosiya” markazi loyihasini to‘la-to‘kis qo‘llab-quvvat-

lagen bo‘lar edi. Chunki bugun aynan mana shunday ko‘lamdar, mukammal, mazmuni teran markazga ehtiyoj bor.

Sobir O‘nar adabiy jarayon, tarjimachilik, kitobxonlar saviyasi, umum-adabiy did haqida ko‘p yozdi. Ijodkor qavmining o‘z holiga tashlab qo‘yilgandan toriqib o‘tdi. Said Ahmadning G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor haqidagi esdaliklari jonli tilda yozilgani, ulug‘ adiblarimizning hayotda oddiy inson bo‘lganliklari, xos fazilatlari tasvirlangani uchun ham g‘oyat qadrli ekanini ta‘kidlab, bizda bibliografiya, memuar yozish urf emasligidan nolib qolardi. Shukur Xolmirzayevning professional adibligiga havasmand bo‘lib, istiqolning dastlabki yillari e‘lon qilingan “Dinozavr” romanidan boshqa bugunning ruhida yozilgan, bugunning hayoti ifoda etilgan yirik, puxta, jiddiy asar ko‘rganim yo‘q der edi.

Sobir O‘nar iste‘dodni ko‘rsa quvondigan bag‘rikeng adiblarimizdan edi. Muboraklik Bahodir Abdurazzoq degan yozuvchi yigitning “Yoshlik” jurnalida e‘lon qilngan “U” deb nomlangan qissasi ga serviqor olimlarimiz e‘tibor qaratmaganiga kuyunadi: “Agar shu qissadagi joy va kishi nomlari, mentaliteti picha o‘zgartirilib, buyuk Amerika adibi Jek Londonning yangi tarjima asari deb o‘quvchilar hukmiga havola etilsa edi, qoyil, bexabar ekanmiz, Jek Londonning biz bilmagan bunday ulug‘ asari bor ekan, deya albatta e‘tirof etgan bo‘lardik... Adabiy muhit o‘zi shunaqa: maqtalishi mumkin bo‘lgan, u maqtalsa, birovga malol kelmaydigan shaxslar bor. Bahodir Abdurazzoq 2011-yili juda zo‘r ikki hikoya, 2014-yili “To‘zon” degan o‘ta g‘aroyib qissa e‘lon qilsa ham, Adabiyot pinagini buzmadi. Bu qadar sovuqqon bo‘lmasa hazrati Adabiyot...”

Muxbirlar va adabiyot muhiblari uchun ijodkorning ish uslubi, kun tartibi qiziq tuyuladi. Sobir O‘nar ana shunday savollarga ham erinmasdan javob bergan: “Ijod jarayonim juda o‘ng aysizliklardan iborat. O‘ta mayda va oddiy narsalar menga xalaqit bera oladi. Kompyuterda ijod qilolmayman, qorningga ikkiti yostiq qo‘yib dustaman tushishim kerak, ko‘krak qafasimning suyagi botib ketmasa, chanqamasam, boyagi o‘zim bezor bo‘lgan dunyoga qaragim kelmasa yoki chekish xumori tutib qolmasa, xullas, chalg‘imasam, shu holatda stixiyali tarzda tuzuk ijod qila boshlayman. Ammo shunday holga qachon yetasan, birodar, deb so‘rasang... Og‘ir, bunday vaziyatga yetmoq o‘zi mushkul. Ijod intizomimga sira havas qilib bo‘lmaydi. Shu bois, agar kimdandir ijodiy buyurtma olsam, aksar hollarda yolg‘onchi bo‘lib qolaman”.

Abdulla Oripov lirikasidagi sog‘inish, armon, ulug‘vorlik, nekbin tuyg‘ular asiri edi Sobir aka. Mumtoz shoirimiz nosir inisining har bir asarida samimiyligini, chin ehtirosni, gap-so‘z-u holatlarning realligi, tabiiyligini tuygani uchun ham juda yaxshi ko‘rardi. “Bibisora” kitobiga yozilgan so‘zboshida ana shu mehrni his etasiz: “Sobir O‘nar asarlarida milliylik, kolorit juda tabiiy yo‘sinda ifodalananadi. Xoh hikoya, xoh qissasida bo‘lsin, u bir qizil chiziq – leytmotivni topib oladi. Uzoqlarga o‘tlab uloqib ketmaydi. Men uning “Bibisora” qissasini qiziqib o‘qiganman. Chingiz Aytmatovday buyuk yozuvchining izdoshidek taassurot uyg‘onadi. “Mixday

asar bo‘pti, uka” deb muallifdan suyunchi ham olganman”.

Sobir O‘nar Oybek, Odil Yoqubov, Azim Suyun, Muhammad Yusuf, Ravshan Fayz, Hoshimjon Mirzaahmedov kabi adib va shoirlar haqida biz bilmagan haqiqatlarni yozdi. Adib publisistikasi mavzu va til nuqtayi nazaridan ilmiy tadqiq etishga munosib. Jamiatyayotiga, uning yutuq va kamchiliklariga befarq bo‘lmagan adib merosi yosh qalamkashlar uchun o‘ziga xos mahorat sabog‘idir.

Jamiyatni chinakam adabiyot isloh etadi. Haqqa, haqiqatga da‘vat etuvchi adabiyot taraqqiyot poydevoridir. “Adabiyot, nazarimda, insонning e‘tiqodini tarbiya qilish kerak” deb hisoblagan Sobir O‘nar iyomon mustahkamligi asosiy masala ekaniga urg‘u beradi: “Ba‘zi G‘arb yozuvchilarining san‘atiga, daholigiga tafsiz aytgan holda tutgan yo‘liga aslo mehrim yo‘qligini yashirmayman. F.Kafka “Maqsad bor-u, unga eltuvchi yo‘l yo‘q, deb o‘ylaganimiz esa oxir-oqibat hech qayerga olib bormaydi”, – deydi. Yoki kundaligida “Insonning butun umri – bor-yo‘g‘i uni o‘limga olib boruvchi yo‘ldir”, – deb yozgan.

Bor-yo‘g‘i o‘lim... Qanday dahshat. Saodatli umr haqida lof urmay qo‘yaver, o‘limdan boshqasiga erishmaysan.

Juda avom o‘zbek ham ikki kaftini ochib, Ollohdan ikki dunyo saodatini so‘rayveradi. Chunki u bor idroki, vujudi bilan Yaratganning kalomida ta‘kidlangan va dasiga batamom ishonadi. Bu dunyoda ham, oxiratda ham iqbol borligiga iyomon keltirgan”.

Sobir O‘nar nosir o‘laroq bir roman bitmoqni orzu qilardi. Qator suhbatlarda “Bir romanga “tagpaxsa” tashlaganman-u, vaqt kamligidan yaqinlasha olmayapman” degan gaplarni ko‘p aytgan. Munaqqid Jovli Xushboqning savollariga javob berib, “Romanga havasmand bo‘lganimiga o‘n besh yildan oshdi, deylik, shu yillar davomida qaysidir ma’noda unga unnab yetaman, ba’zan hafsalasizlik, yalqovlik ustun keladi, goho o‘tirib, chinakamiga “chechilib” yozishga yumush xalaqit qiladi, umuman, bahona ko‘p. Shukur akaga o‘xshab “hayt!” deya hamma narsadan voz kechib uzlatga ketish, asli – jasorat. Shu bois malomat qilsam, birovdan emas, o‘zimdan o‘pkalashim kerak” deydi. Nurilla Chori uyuştirgan gurungda esa “Oybekning mukammal asarlarining qaysidir tomidan Amir Olimxon hayoti va faoliyatining chirkin tomonlari haqida to‘plagan materiallarni o‘qigan edim. O‘sha zamoni jonlantirib, bir narsa yozmoqchi bo‘lib yuribman. Xudo nasib qilsa, eplayolsam, albatta” degan fikrni bildiradi.

Adibning “Ot choptirsa gumburlaydi tog‘ning darasi” nomli maqolasida Amir Muzaffar, Amir Olimxon, Muhammad to‘qsabo haqida juda qiziq voqealar hikoya qilinadi. Nazarimda, adib roman uchun yiqqan materialidan bir shingil ililingan.

Yolg‘onchida ismiga nomunosiblar ko‘p. Sobir O‘nar otiga munosib yashab o‘tganlardan biri. Ollo sabr qiluvchilarni sevadi deyilgan. Sobir O‘nar suyuvchining huzuriga ketdi. Oxirat manzili obod bo‘lgay, inshoolloh!

Olim TOSHBOYEV, filologiya fanlari nomzodi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist

## Fanimiz fidoyilar



Sergirra olim, filologiya fanlari doktori, professor Boqijon To'xliyev o'zining yirik va jiddiy ilmiy asarlar, darslik va o'quv qo'llanmalari bilan o'zbek adabiyotshunosligida dovrug' qozongan.

Boqijon To'xliyev ilmiy izlanishlarining o'q chiziqini Balasag'un mavludlig' Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" masnaviysiga bag'ishlangan ishlari tashkil etadi.

Biz, Boqijon bilan O'zbekiston Fanlar akademiyasi ning Qo'lyozmalar institutida oldinma-ketin ish boshlaganmiz (Bu o'tgan yuzyilning 81-yillari edi). Men ishga kelganimda unga olim Yoqubjon Ishoqov ilmiy rahbarligida "Qutadg'u bilig"ning poetikasini ishlash topshirilgan ekan. Menga esa qozog'istonlik yirik turkolog G'ubaydulla Aydarovning ilmiy rahbarligida uyg'ur yozuvli qo'lyozma asosida asarning til o'zgachaliklarini ishlash mavzu qilib berildi.

Boqijon ikkimiz nomzodlik dissertatsiyamizni boshlaganda, ko'p yilimiz asarning tilini, uning qo'l-yozmalarini o'qib o'rganish, asl matnni anglab olish, shu bilan birga, unga chog'dosh "Devonu lug'ati-turk", yana qadimgi turkiy toshbitiglarni, buddaviylik va moniychilik muhitida yaratilgan yozma yodgorliklarni chuqur o'rganishga ketdi. Dunyo turkologlarining ishimizga tegishli bo'lgan asarlarini, ular yaratgan ilmiy nashrlarni sinchiklab o'rganib chiqdik. Sohaga bog'liq biror-bir kitob, maqola yaratildimi, uni izlashga tushardik.

Biz bilgan muktab, ilmiy muhit ana shunday ishladi. Bizga tengqur Nasimxon Rahmonov, Shomirza Turdimov ham ilmning og'ir so'qmoqlaridan borib, kam bo'lmadi. Hozir ular yirik va taniqli fan doktorlari, professorlar. Og'amiz Mirsodiq I'shoqov so'g'd va avesta tilini, ularning yozuvini, davr tarixini yaxshi bilgani uchun o'sha sohalardan kuchli olim bo'lib tanildi.

Biror yozma yodgorlikka bag'ishlangan dissertatsiya ilkin manbadan, uning qo'lyozmalarini, yo'q deganda, asarning ilmiy nashriga tayangan holda yaratilmog'i kerakligini bizga akademik Aziz Qayumov o'rgatdi. Ishlarimizning bajarilishini o'zi kuzatib turdi. Bizni Aziz Qayumovning ilmiy maktabi tarbiyaladi, yo'liga soldi, olim qildi.

Ilmiy ish qanday yo'nalihsda ekanidan qat'i nazar, izlanuvchi asl matnni bilushi, uning ich-ichiga kirib bor-mog'i kerak. Boqijonda ana shu bilim bor: chin bilimning tartib-to'rusini yaxshi bilgani, yo'l-yo'ríg'ini qattiq tutgani uchun u katta olim bo'ldi, ilmda ulkan yutuqlarga erishdi.

Boqijon To'xliyev 1983-yili O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti qoshidagi ixtisoslashgan kengashda "Qutadg'u bilig"ning poetikasi masalalari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini yoqoldi.

Dissertatsiyada "Qutadg'u bilig" poetikasining uch qirrasiga e'tibor qaratilgan: asarning janr tizimi va turkiy she'riyatdagi ayrim janrlar genezisi; asarning vazni masalasi hamda badiiy tasvir printsiplari.

Muallif asarning janr tizimi haqida yozar ekan, masnaviy va uning turkiy yozma adabiyotga kirib keliishi, o'ziga xosligi, asardan o'rin olgan to'rtliklar hamda qasidalar haqida fikr yuritadi. Uning urg'ulashicha, "Qutadg'u bilig"da turkiy klassik adabiyotning keyingi davrlarida keng qo'llangan va turkiy she'riyat uchun yetakchi sanalgan janrlar (masnaviy, to'rtlik, tuyuq, qasida) mujassam. Qadimgi turkiy she'riyatda, garchi kurtak holida esa-da, turli poetik shakllar sinkretik tarzda mavjud edi. Yusuf Xos Hojibning tarixiy xizmati shundaki, u birinchilardan bo'lib bu janrlarni yozma adabiyotga olib kirdi va ularning shakliy jihatdangina emas, g'oyaviy-badiiy jihatdan ham takomillashuviga yo'l ochdi.

Badiiy tasvir printsiplari to'g'risida fikr yuritib, asarda istiora, tazod, irsolu-l-masal, talmeh, taqsim, nido san'atlарining qo'llanishi va ularning asar badiiyatini ko'tarishdag'i o'rnnini yoritib bergan. Izlanuvchining kuzatuviga ko'ra, Yusuf Xos Hojib o'z ijodi bilan epik she'riyatdagina emas, balki sharq lirkasining ham boy tasviriy vositalari hamda usullaridan ijodiy foydalandi,

# BILIG KIMDA BO'LSA, BEDUGLUK ALUR

poetik vositalarning imkoniyatlarini ken-gaytirdi va boyitdi.

Olimning bu yutug'i kelgusi yirik ishlarning eshidigini ochdi.

U 1992-yili O'zbekiston Fanlar akademiyasi Adabiyot instituti qoshidagi ixtisoslashgan kengashda "Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari va turkiy tilli folklor (Motivlar. Obrazlar tizimi. Badiiy tasvir prinsiplari)" mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Ushbu doktorlik dissertatsiyasi ikki tarmoq – o'zbek adabiyoti va folkloristika ixtisosliklari kesimida yoqlandi. Ish O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, akademik, filologiya fanlari doktori Aziz Qayumovning ilmiy maslahatchiligi ostida yaratildi.

Dissertatsiyada asarning turkiy folklor bilan bog'liq quyidagi qirralari tadqiq etilgan: "Qutadg'u bilig"da-gi folklor motivlari; asarda ishlatilgan xalq maqollari, og'zaki nutq elementlari va turli iboralar; asarning obrazlar tizimi va asardagi badiiy san'atlarning qo'llanish prinsiplari.

Bizning birligida yaratgan ilk yirik kitobimiz 1989-yili "Fan" nashriyotida chop etilgan "O'limas obidalar (O'zbekiston xalqlarining qadimgi yozma yodgorliklari bo'yicha tadqiqotlar)" monografiyasidir. Unga Mirsodiq I'shoqovning "So'g'd yozuvining shakllanishi va taraqqiyoti", Nasimxon Rahmonovning "Kul tigin yod-nomasining poetikasi", mening "Qutadg'u bilig"ning til xususiyatlari", Boqijon To'xliyevning "Qutadg'u bilig"ning poetikasi masalalari" nomli tadqiqotlarimiz kiritilgan. Kitob bilim kishilarining e'tiboriga tushdi, yaxshi taqrizlar yozildi.

Boqijon 1989-yildan boshlab Toshkent davlat pedagogika institutiga ishga o'tdi. U yerda kafedra mudiri, fakultet dekani, kafedra professori bo'lib ishladi. Uning oliy o'quv yurtidagi faoliyati ham unumli bo'ldi. Shu oraliqda tolibi ilmlar uchun darslik va qo'llanmalar yaratdi. Muhimi, u o'sha kezlar o'rta maktablar uchun "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligini ham yozdi. O'sha dargohda professor ilmiy unvoniga ega bo'ldi.

1990-yili Boqijon To'xliyev "Qutadg'u bilig"ning muktab o'quvchilari uchun mo'ljalangan, hozirgi o'zbekchaga o'girilgan qisqacha nashrini chop ettirdi.

Olim 2016-yildan Toshkent davlat sharqshunoslik instituti(hozirgi universitet)ga o'tib, shu kunga qadar professor lavozimida ishlab kelayotir.

Boqijon To'xliyev Alisher Navoiy merosini ham chuqur o'rgangan olimlardan. Navoiy ijodi, she'rlarining talqini, poetologiya masalalari bo'yicha ko'p ish qildi. Ulug' ijodkor asarlarini oly o'quv yurtlarida o'qitish borasida ham kitoblar yozdi.

U bir necha yil burun Navoiy she'riyatining ilmiy talqinlarini o'rganish bo'yicha ilmiy loyiha bosh bo'lgan edi. Bu ishning yakuni o'laroq, 2020-yili uning mas'ul muharrirligida Alisher Navoiy "G'aro-yibu-s-sig'ar" devoniga kiritilgan g'azallarning sharh va izohlari chop etildi. Kitob o'n jilddan iborat. Bu hali birgina devondagi g'azallarning o'zi.

O'zbek navoiyshunosligi yaxshi, to'g'ri va kerakli yo'lni tutdi: Navoiy g'azallarining ilmiy talqinlari yaratila boshladidi. Bu ish ancha ilgari boshlangandi, ulug' mutafakkir ijodini o'rganish yangi pallaga kirkach, jadallahib ketdi.

Tasavvur qiling, ayrim g'azallarning o'ndan ortiq talqinlari bor ekan. Har qaysi olim g'azalni o'zicha talqin qiladi, biri birini qaytarmaydi. Bularning bari o'n jiddlikka jamlangani yo'q, ulardan bir nechta kiritilgan xolös.

Talqinlar turli-tumanligining sababi shundaki, Hazrat Navoiy she'rlari, ayniqsa, falsafiy-tasavvufiy g'azallari teran mazmunga ega bo'lib, ularning talqinida bir



to'xtamga kelib, tuganchi so'zni aytish qiyin. Navoiyning o'zi ana shunday yo'l tutib, uning yechimini tiyrak va zakiy, o'tkir bilimli o'quvchisiga meros qoldirgan chog'i.

Bulardan bir haqiqat yuzaga chiqadi: bir-ikki talqin bilan Navoiy g'azallarining adog'iga yetib bo'lmash ekan. Ulug' sho'r she'rlarining badiiy-falsafiy talqini, ma'nolar ko'lami, ulardagi yashirin mazmun hali ko'p uya-avlod bilim egalaring qiziqishini o'ziga tortishi, bahsu munozaralarini qo'zg'ashi aniq.

Boqijon To'xliyevning so'ngi yillarda yuzaga chiqargan ulug' ishlardan yana biri "Qutadg'u bilig"ning hozirgi o'zbekchaga she'riy o'girmasidir. Kitob yangi chop etildi. Bu ishni Boqijon Qo'lyozmalar institutida ishlab yurgan kezlarimiz boshlagan edi. Masnaviy o'girmasining ayrim bo'laklari o'sha paytлari yilning har choragida nashr etiluvchi "Adabiy meros" ilmiy to'plamining qator sonlarida bosilib chiqqandi. Yana "Qutadg'u bilig"ning maktab o'quvchilari uchun yaratilgan nashrida ham Boqijon To'xliyevning nasriy bayoni va she'riy o'girmalaridan kiritilgan.

"Qutadg'u bilig"ning ruscha she'riy o'girmasini olim va tarjimon S.N. Ivanov amalga oshirgan: niyoyatda chiroyli o'girma; chinmatn(original)ning o'zginasi; ulug' bitig olamida yurganday sezasiz uni o'qiganda.

**Сказал Огдюльмиш: "Ум – отрада отрад, В делах справедлив он и благом богат.**

**Скол ни был бы юн, он собою пригож, Благими делами всегда он хороен.**

**И чист он, и прям, и в совершеньях умерен, В общенье с людьми добронравию верен....**

S.N.Ivanov o'girmasi "Yusuf Balasaguni. "Благодамное знание" nomi ostida 1990 yili "Sovetskiy pisatel" nashriyotining Leningrad bo'limida chop etilgan. Kitob yangi chiqqanda bilim kishilari o'rtasida shov-shuv bo'lib ketdi; Akademkniga do'konlariga zuv yuguramiz – kitobning o'zi yo'q; rosa qidirgandik.

Boqijonning she'riy o'girmasini ham yuksak darajada o'girmalar qatorida turadi. Ish ustalik, o'ta bilimdonlik bilan bajarilgan.

*Qizil til qiladi qisqa yosh seni,  
Esonlik tilasang, pishiq tut uni.*

*Nima der eshitgin, tilin qisgan er,  
Esonlikda yashar o'zin bosgan er:*

*"Qora boshga yovuz yovdir qizil til,  
Ne-ne boshni yedi, yana yegay, bil.*

*Boshingni o'ylasang, asragil tiling,  
Istagan onida boshga yetar til".*

Boqijonning katta yutuqlaridan biri shuki, u chinmatni chuqur o'zlashtirgan; eski turkiy so'zlar, iboralarning anglami, poetik vazifalarini yaxshi biladi. U "Qutadg'u bilig"ning ichida yashaydi. Ushbu o'girma tasodifiy emas, shu sohaning bilimdoni, o'tkir bilim kishisining ishi.

*Oq sut bilan kirsa qaysi bir qiliq,  
O'lim tutmaguncha o'zgarmas yo'riq.*

*Mizoja qo'shilib kelarkan odat,  
Uni buza olur bir o'lim faqat.*

Bir udum yaralsa qorinda agar,  
Qora yer qa'riga kirganda ketar.

She'riy o'girmani berilib o'qir ekansiz, hozirgi tili  
mizda unutilgan so'zlar, og'zaki adabiyotga yarashig'liq  
undovlarni tarjimon ustalik bilan baytlarga singdirib  
yuborganini payqamay ham qolasiz. U ana shu va shuning  
singari usullar bilan chinmatndagi mazmun va potetik ta'sirni zamonomiz o'quvchisiga yetkaza bilgan:

Kumush qolsa meros bo'lib gar senga,  
Uni tutmagin sen bu so'zga teng-a!

Kumush ishga tushsa, olqinar, tugur,  
So'zim ishga tushsa, oltinlar to'kar.

Yana bir o'rnak:

Tirik oxir o'lar qora yer quchib,  
Nom ezgu esa-chi, ketarmi o'chib?

Ikki xil nom qolar tilda begumon,  
Biri yaxshiligi birisi – yomon.

Dono maqtov olar, nodon-chi – so'kish,  
O'zing o'yla, senga ma'qul qaysi ish?

Hozir biz Boqijon bilan birga Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik" kafedrasida dars beryapmiz. U kuchli professor, so'zga chechan, tinglovchining havasini keltiradigan notiq; katta-katta auditoriyalarni o'ziga qaratada biladigan iqtidori bor. Ilmiy majlislarda keng bilimi, so'zining ta'sirchanligi bilan qiyin tugunni ham yecha oladi. Shu fazilati bilan tolibi ilmlar, ilmiy jamaoa orasida yuzsuvi tugal.

Ishda ham, uuda ham uning bo'sh vaqt shogirdlar tashvishi bilan o'tadi. Yosh izlanuvchilarining ilmiy maqolalari, dissertatsiyalarini ko'rib berish bilan ovora. Shu choqqacha uning ilmiy maslahatchiligi ostida bir necha fan doktori, ilmiy rahbarligida qator falsafa doktori yetishib chiqqdi. Ayni chog'da o'z dissertatsiyasini yozib tugatayotgan izlanuvchilarida bor.

Boqijon To'xliyev O'zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti va oliy o'quv yurtlari qoshidagi ilmiy kengashlarda o'nlab izlanuvchilarining dissertatsiyalariga rasmiy opponentlik qilgan. Ilmiy ishlarni o'qib, tahlil qilish va xulosa berishda unga tenglashuvchi bilgin oz; taqrizlari xolis, ilmiy tortishuv-larga boy.

U o'z bilganlarini elga yoyishda ham ishchan. O'zbekiston televideiniyesi va radiosida o'zbek adabiyoti tarixiga bog'liq suhbatlar, gazeta va jurnallarda o'qishli maqolalari bilan qatnashib turadi.

Yusuf Xos Hojib kishi qadri bilimi bilan o'lchanajagi to'g'risida so'z yuritar ekan, o'tmishda yashab o'tgan ulug' bilgalaridan birining o'gitini o'rnat qilib keltiradi. Mana uning aytganlari:

Uqush qayda bo'lsa, ulug'luq bo'ur,  
Bilig kimda bo'lsa, bedugluk alur.

Uqushlug' uqar-o'l, biliglig bilir,  
Biligli uqug'li tilakka tegir.

Bu baytlarni shunday tushuning:

"Uquv qayda bo'lsa, ulug'luq bo'radi,  
Bilim kimda bo'lsa, buyuklik oladi.

Uquvli uqadi, bilimli biladi,  
Bilimli va uquvli (o'z) tilagiga yetadi".

Taniqli adabiyotshunos, o'zbek adabiyoti tarixining bilimdoni va chinakam fidoysi, filologiya fanlari doktori, professor Boqijon To'xliyev bu yil qutlug' yetmish yoshni qarshilayotir. Men yaqin do'stimga uzoq umr, sog'liq, ilmiy va pedagogik ishlardida yutuqlar tilab qolaman.

**Qosimjon SODIQOV,**  
filologiya fanlari doktori,  
Toshkent davlat sharqshunoslik  
universiteti professori

## E'tirof

Ardoqli o'zbek shoiri Omon Matjonning shunday misralari bor: "Umr, yo'l, qayrilish ko'p, Unutish, aytlish ko'p, Uchrashish, ayrilish ko'p...". Darhaqiqat, inson o'z hayotida juda ko'p odam bilan uchrashadi, muloqotda bo'ladi, ulardan nimanidir o'rganadi, qaysidir bir jihatini o'ziga o'zlashtiradi, yaxshi insonlardan ibrat olishga harakat qiladi. Nazarimda, Sultonmurod Olim shaxsiy hayoti, ilmiy-ijodiy faoliyati, olimligi va odamiyiligi bilan ko'pchilikka ibrat numunasi bo'la oladigan, o'rgansa arziyidigan shaxs.



O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi sifatida barakali mehnat qildi. Ijtimoiy hayotning turli sohalari ga doir ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy, siyosiy-publisistik maqolalar chop etti, O'zbekiston radiosи va televideiniyesida dolzarb mavzularda chiqishlar qildi. Sultonmurod aka O'zbekiston Journalistlar uyushmasi a'zosi sifatida ham juda barakali ijod qildi. Bir qator gazeta va jurnallar: "Tafakkur" (1999–2011), "Ma'rifat gulshani" (2005–2011), "Intellekt" (2007–2008), "Yangi O'zbekiston" (2023) gazetalarining tahrir hay'ati a'zosi sifatida faoliyat olib bordi. 3 mingdan ortiq ilmiy, ilmiy-ommabop, publisistik maqolalari, mafkuraviy hangoma, she'r va badiiy tarjimalari chop ettili, mamlakatimizning deyarli barcha tuman va shaharlarda o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarida ishtirot etdi. Sultonmurod Olimovning sharaflı mehnati ilmiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi, uning yozganlari adabiy-badiiy doiralarda shov-shuvlarga sabab bo'ldi. 1994-yili Xalqaro Ahmad

# OLIMLARNING SULTONI

Sultonmurod aka bilan o'tgan asrning 80-yillarda tanishganmiz, bir ilm dargohida – Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutida birga ishlaganmiz. Qarangki, ikkimiz ham bir universitetda – ToshDU(hozirgi O'zMU)da o'qigan ekanmiz. Shu sabablimi yoki bir daryo – Zarafshonning suvini ichib katta bo'lganimiz boisidanmi tezda apoq-chapoq bo'lib ketganmiz. Ehtimol, bunga Sultonmurod akadagi samimiylik, odam-oxunlik sabab bo'lgandir. Chunki men u kishining biror marta ham qovog'ini solib yurganini ko'rmaganman, biror narsadan shikoyat qilganini eshitmaganman. Doimo tabassum bilan yurishi, keljakka qat'iy ishonch bilan qarashi, tafakkur doirasining kengligi, ayniqsa, mumtoz adabiyotni chuqur o'zlashtirgani hamda g'azal va she'rlarni juda ommabop tilda tushuntira olishi hammani hayratga solardi.

1985-yili Najmiddin Komilov ilmiy rahbarligi va G'aybullha Salomov ilmiy maslahatchiligidagi "Alisher Navoiy asarlari tarjimasida badiiy san'atlarni qayta yaratish va tabdil etish muammolari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan edi. Esimda, o'shanda akademik Aziz Qayumov mazkur ilmiy-tadqiqot to'g'risida juda iliq fikrlarni aytgandi. Nazarimda, Sultonmurod aka dissertatsiya himoyasidan keyin juda faollashdi: qator ilmiy maqolalar e'lon qildi, ommaviy axborot vositalarida ketma-ket chiqishlar qildi, tasavvuf adabiyoti bo'yicha nazariy fikrlarni o'rtaga tashladi, ketma-ket kitoblar yozdi. Ayniqsa, 1992-yili "Fan" nashriyotida chop etilgan "Ishq, oshiq va ma'shuq" risolasi o'zbek adabiyotshunosligi tarixida juda katta voqeа bo'ldi. Chunki o'sha davrlarda mumtoz adabiyotni, xususan, Alisher Navoiyni anglashda tushunmovchiliklar, biryoqlama mafkuraviy yondashuvlar juda kuchli edi. Olimovning mazkur kitobi Navoiyni anglash, mutafakkir shoirimiz ijodini to'g'ri talqin etishning ilmiy-nazariy asoslarini boshlab berdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

G'atali bir o'xshashlikka qarang: Hazrat Alisher Navoiy ham ijodiy faoliyat bilan bir qatorda davlat ishlari bosh-qosh bo'lgan, hatto amir – bosh vazir darajasigacha bo'lgan lavozimlarda faoliyat olib bor-gan. Sultonmurod Olim ham 1994–1997-yillarda Tashqi ishlar vazirligida bosh konsultant – "Spichrayter" guruhi rahbari, bo'lim mudiri o'rinosari, tahririyat mudiri lavozimlarida ishladi. 1997–2000-yillarda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida konsultant, yetakchi konsultant, bosh konsultant vazifalarini bajardi. 2000–2011-yillarda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari o'rinosari bo'lib ishla-di. Shunisi quvonarlikki, mana shu yillarda ham ilmiy-ijodiy faoliyatdan to'xtagan emas. Uch nomzodlik, uch magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbarlik qildi, 8 nomzodlik, 8 falsafa doktori va 2 magistrlik disser-tatsiyasiga esa rasmiy opponent bo'ldi. 1993-yildan

Yassaviy mukofotiga sazovor bo'ldi. Ayni paytda uning xizmatlari hukumatimiz tomonidan ham munosib taqdirlandi. 1995-yili II darajali II kotib diplomatik martabasini oldi, 2001-yilda "Mehnat shuhrati" ordeni sohibiga aylangan bo'lsa, 2014-yili "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi a'lochisi" bo'ldi. 2021-yilda esa "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" faxriy unvoniga erishdi.

Ko'rindaniki, Sultonmurod Olimov bir yigit erishishi mumkin bo'lgan martabalarga yetishdi. Davlat va jamoat ishlari bilan bir qatorda o'zbek ilm-u fani, adabiyoti, madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shdi. Ona tilimizning davlat tili maqomiga erishuvida, uni ilmiy-tadqiq etishda samarali mehnat qildi. Biroq biror kun ham ilm-u ma'rifatdan uzoqlashmadni, timmay izlandi, o'zbek tili va adabiyotining ochilmagan qiralarini kashf etishga intildi, mumtoz adabiyotimizning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishdan charchamadi. Buyuk Britaniya, Turkiya, Eron, Polsha, Ozarboy-jon va Qozog'istonda maqolalari bosilib chiqdi. Ilmiy, ilmiy-ommabop va publisistik asarlariga AQSH, XXR, Eron va tojikistonlik mutaxassislar munosabat bildirishgan. Bularning bari Sultonmurod akaga yanada kuch bag'ishladi. 2023-yilda filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Muslihiddin Muhiddinov ilmiy maslahatchiligidagi "Lison ut-tayr"ning qiyosiy poetikasi: sintez, naziraviylik va tarjimaviylik" mavzusida filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya yoqladi.

Hazrat Navoiyning o'sha mashhur baytini: "Odam ersang demagil odami, Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami" misralarini bilmagan o'zbek topilmasa kerak. Chunki bu misralar asrlar osha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Binobarin, ayni shu misralarni qalbiga jo aylab, bir umr o'sha aqidaga amal qilib kelayotgan odamlar ham kam emas. Bugun o'zining muborak yoshini nishonlayotgan Sultonmurod Olimov ham yuqorida misralarga monand hayot kechirayotgan, xalq dardini, manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'ya olgan insonlardan biri, sultonlar ichida yurgan olim, olimlarning esa sultonidir. Fursatdan foydalaniib, Sultonmurod akaga mustahkam sog'liq, ilmiy-ijodiy ishlarida ulkan zafarlar tilab qolamiz.

Baxt-u toleyini qidirgan odam,  
Olis yo'lg'a chiqqan yurtdoshim, og'am.  
Bardam bo'l, horima, dadil qo'y qadam,  
Ilohim yo'llaring bexatar bo'lsin,  
Tangrim murodingni tuyassar qilsin!

Ravshan JOMONOV,  
O'zbekiston davlat xoreografiya  
akademiyasi professori



## Mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari diqqatiga!

## O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

rektorati 2023/2024-o'quv yilida bakalavriat ta'limga yo'naliishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarni hamkorlik shartnomalari asosida ish joylariga dastlabki taqsimlash jarayoni boshlanganligini ma'lum qiladi.

Universitetning bitiruvchi bakalavr va magistrlariga ehtiyoji bo'lgan korxona rahbarlaridan bitiruvchilarga kelgusidagi ish joyini tanlashida ko'maklashish maqsadida ularga yaratib berilishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar (maosh, turar joy bilan ta'minlash va boshqa imtiyozlar) haqida universitet marketing va talabalar amaliyoti bo'limiga joriy yilning 15-martiga qadar talabnomha hamda so'rov xati bilan murojaat qilishingizni so'raymiz. O'zbekiston davlat jahon tillari universitetini 2023/2024-o'quv yilida bitirayotgan bakalavr va magistrlar haqidagi ma'lumotlar:

(g – davlat granti asosida, sh – shartnoma asosida):

№	Ta'lim yo'naliishlari, mutaxassisliklar	Bakalavriat																																		
		Xorijiy til va adabiyoti: ingliz til		Maktabigacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz til)		Filologiya va tillarni o'qitish:												Ona tilli va adabiyoti: rus tilli va adabiyoti o'zga tili guruhlarida		Tartima mazaryusi va analoyi: (ingliz til)		Tartima mazaryusi va analoyi: (rus tilli)		Tartima mazaryusi va analoyi: (transuz til)		Tartima mazaryusi va analoyi: (arab til)		Madaniyatlarning konstitusionaliqtanotilishi ta'minoti (ingliz til)								
		G	SH	G	SH	G	SH	G	SH	G	SH	G	SH	G	SH	G	SH	G	SH	G	SH	G	SH	G	SH	G	SH									
	Shahar(tuman) va viloyatlar	G	SH	G	SH	G	SH	G	SH	G	SH	G	SH	G	SH	G	SH	G	SH	G	SH	G	SH	G	SH	G	SH									
Toshkent shahri	Yakkasaroy	4	13		2	2	4		2		1		1	1					2		4		3			2		1								
	Shayxontoxur	3	21	1	4	1	7		2		1		4		2				3	1	4		1	3	1		1									
	Uchtepa	5	26		6	6	16	1		1	3	1	1		2			1	2	3	9		1	1	5			1								
	Yunusobod	8	24	3	8	5	13		1		3		4		3	1	2	3	3		4		2	7		1	4	3								
	Sirg'ali	6	26	1	5	4	10					1			2			2	2	2	6		2		4		1	3								
	Chilonzor	9	44	1	8	9	21	1	1		2		2		1	1	4		9		1	6	9		2		2	1								
	Yashnobod	10	18		5	12	10	1	4		1	1	2	3			4	4	3	2		1	1	6		2		3								
	Mirobod	3	10		2		6		1		1			1			2		4								2									
	Mirzo Ulug'bek	14	12	2	3	3	20		2	1	2	2	5		2		2	4	3	1	1		2	5	3		2									
	Olmazor	7	14	1		3	6		1		1		2		1			1	2		1		1	1	1	1	4	3								
	Bektemir	2	9		1		2																													
	Yangihayot	1	12			3	5																													
	Jami:	72	229	9	44	48	120	3	14	2	15	5	21	6	21	3	5	18	29	11	45	0	12	18	41	2	7	1	2	2	19	3	10	5	14	3
2	Andijon viloyati	23	65	1	7	8	8	1	7					1			1	2	4		11	3	5	4	5						3	3	2	2	3	
3	Buxoro viloyati	24	60	4	9	16	25	1	3	5	14	1	2						1	1	4	6	13	3	11	1	2	7	4			2	1	2		
4	Jizzax viloyati	16	57	1	4	4	16	3	4		1			1	5		1	1	4		5	1	3	3	7	2	7	1	2		2	3	1			
5	Namangan viloyati	43	91	1	6	21	34	2	3			1			3	1	1	1	5	22	2	8	2	8	1					2	3	3	3			
6	Navoiy viloyati	28	52		3	18	15		2	1	3		3			1	1	2		7	2	9	4	8	1	6		2	1	4	2	2				
7	Samarqand viloyati	23	93	2	13	11	25	6	12		9	2	3	2	6	2	2	2	13		3	1	11	5	11	3	9	6	2	1	2	1	7			
8	Surxondaryo viloyati	24	64	1	5	13	41		3									2	4	1	6	2	12	5	8	1	2		3	1	4	1	3			
9	Sirdaryo viloyati	23	36	1	4	6	17	1	4		2		1		3				1	2	2	11						1		1	5					
10	Farg'onan viloyati	32	108	4	11	29	62	2	5		7		2	1	1		4	2	2	6	15	9	24	1	17		2	4		1	1	3	5	1	2	
11	Xorazm viloyati	11	48		3	17	29	1	4	5	5							1	1	3	2	8	3	14	2	4		1			2	1	3			
12	Qashqadaryo viloyati	38	137	3	11	26	92	5	12		1		2	1	4		1	2	8	8	23	4	39	3	16		3		2		1	1	2	1	5	
13	Toshkent viloyati	42	130	7	12	18	71		3		3	3	5	2	8		2	5	13	6	15		2	6	18	1	2		2	1	1	3	3	11		
14	Qoraqalpog'iston Respublikasi	18	38	2	2	4	12				1							1	1		1	6	1	2		2						1				
	Jami:	345	979	27	90	191	447	22	62	11	46	7	18	11	32	3	15	20	56	30	127	35	144	40	126	9	35	8	25	0	9	9	16	9	31	



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIVALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

**“Innovatsion ta'lismi texnologiyalari” va “Personalni boshqarish” kafedra mudirlari  
hamda kafedralalar bo'yicha professor-o'qituvchilarning bo'sh lavozimlariga**

## TANLOV E'LON QILADI

**Kafedra mudiri** – professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, fan nomzodi, falsafa doktori (PhD), fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning tegishli mutaxassislik bo'yicha ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga hamda kamida 5 yil ilmiy-pedagogik ish stajiga ega bo'lishi;

**Professor** – professor ilmiy unvoniga yoki fan doktori ilmiy darajasiga, shuningdek, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lgan yoki fan nomzodi, falsafa doktori(PhD) ilmiy darajasiga yoki tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxs kamida 5 yil ilmiy-pedagogik ish stajiga ega bo'lishi, ushu kafedralarning ta'lismi yo'nalihlari bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalar muallifi bo'lishi;

**Dotsent** – fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori(PhD) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalar (dotsentlik ilmiy darajasiga hamda tegishli kafedra yo'nalihi bo'yicha 3 yil amaliy stajga ega bo'lishi;

**Katta o'qituvchi** – oliv ma'lumotli (magistr, diplomli mutaxassis), shuningdek, ilmiy daraja (fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori(PhD) darajasiga yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalarga) va ilmiy unvonga ega bo'lgan hamda bunday daraja va unvonga ega bo'limgan, biroq tegishli kafedralar yo'nalihi bo'yicha o'qituvchilik va ilmiy-tadqiqot tajribasiga ega bo'lishi kerak bo'ladi.



Murojaat uchun manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy 2, 96-uy.

Telefonlar: (71) 246-90-49, 246-90-37, 227-12-88; veb-sayt: ipitvet.uz

**Hodjayeva Nazira Ahmedovnaning 14.00.13 — Nevrologiya ixtisosligi bo'yicha**  
*"Harakat yetishmovchiligining og'irligiga va yurak-qon tomir tizimining dastlabki holatiga qarab ishemik insult bilan og'rigan bemorlarni erta reabilitatsiya qilishda neyrovegetativ ko'rsatkichlarning dinamikasi" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.04.2022.Tib.93.02 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 27-fevral kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvoni ko'chasi, 23-uy.  
 Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhme@mail.ru

**Irnazarov Shuxrat Ismatullayevichning 06.01.08 — O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha**  
*"Kuzgi bug'doy va ang'izida yetishirilgan takroriy ekinlarning o'sishi, rivojlanishi hamda hosildorligiga mineral o'g'itlar ta'sirining ilmiy asoslari" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiysi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutini huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.05/30.12.2019.Qx./B.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 29-fevral kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, PSUEAITI.  
 Tel/faks: (78) 159-62-84, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

**Rajabov Habibullo Ibodullayevichning 23.00.02 — Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligi bo'yicha "Davlatning axborot siyosati: xalqaro tajriba va O'zbekiston amaliyoti" mavzusidagi (siyosiy fanlar bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.S.01.08 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 29-fevral kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy, O'zMU,  
 Ijtimoiy fanlar fakulteti, 511-xona.  
 Tel/faks: (71) 246-02-24, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

**Musurmanov Elyor Shirinkulovichning 04.00.10 — Geoteknologiya (ochiq, yer osti va qurilish) va 04.00.16 — Konchilik mashinalari ixtisosliklari bo'yicha "Shaxta chuqur gorizontlarini qazib olishda shamollatish tarmog'i rivojlanishini asoslash va uskunalar samaradorligini oshirish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.17/04.06.2021.T.06.02 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 1-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 210100, Navoiy shahri, G'alaba shohko'chasi, 76-“v” uy.  
 Tel/faks: (79) 223-04-40, 223-49-66; e-mail: info@nsumt.uz

**Sobirov Furkat Nigmatullayevichning 14.00.01 — Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha "COVID-19 bilan kasallangan homiladorlarda homila tug'ma immunitetining adaptatsion mehanizmlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.04.2022. Tib.93.02 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 5-mart kuni soat 13:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvoni ko'chasi, 23-uy.  
 Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhme@mail.ru

**Toshpo'latov Shohijahoning 09.00.09 — Ma'naviy jarayonlar va texnologiyalar (siyosiy fanlar) ixtisosligi bo'yicha "Dinay bag'rikenglikni ta'mintashning xalqaro siyosiy mehanizmlari" mavzusidagi (siyosiy fanlar bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/29.12.2022.F/Ss.135.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 1-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko'chasi, 9-uy.  
 Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti binosi, 3-qavat, 307-xona.  
 Tel/faks: (55) 503-41-90

**Mardonov Bahodir Mardon o'g'lining 23.00.02 — Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta'lismida yoshlar siyosati samaradorligini oshirish" mavzusidagi (siyosiy fanlar bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 1-mart kuni soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zMU,  
 Ijtimoiy fanlar fakulteti, 511-xona.  
 Tel/faks: (71) 246-02-24, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

**To'xtayev Bobir-Mirzo Avazovichning 23.00.02 — Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston Respublikasida "elektron parlament" tizimi va uni takomillashtirish masalalari" mavzusidagi (siyosiy fanlar bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 1-mart kuni soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zMU,  
 Ijtimoiy fanlar fakulteti, 511-xona.  
 Tel/faks: (71) 246-02-24, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz



Kitobga oshno yoshlari

**"Yosh kitobxon" tanlovi:**

## **"KOBALT" SAMARQAND VA QASHQADARYOGA KETDI**



Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus doirasiда 2017-yildan buyon an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Yosh kitobxon" tanlovida bugungi kunga qadar 4,7 mln nafardan ortiq yoshlari ishtirok etib, 17 nafari Prezident sovg'asi "Spark" avtomashinasi sovrindori bo'ldi.

Yoshlari agentligi matbuot kotibining xabar berishicha, 2023-yili tanlovdagi ishtirok etish uchun 805 ming(2022-yilda 640 ming) nafarga yaqin yoshlari onlayn ariza topshirgan.

Mahalla va sektor bosqichlarida ishtirokchilar test savollari orqali sarangan bo'lsa, g'oliblar tuman (shahar) bosqichlarida 1 ta shart(Tezkor savol-javob), hududiy bosqichlarda 2 ta shart(Badiiy asarlar bilimdoni; Tezkor savol-javob) asosida o'zaro bellashdi.

Joriy yilning 15–23-fevral kunlari Toshkent shahridagi Yoshlar ijod saro-yida hududiy bosqich g'oliblari(jami 42 nafar) respublika bosqichida quyidagi 5 ta shart asosida o'zaro bellashishmoqda:

1. "Badiiy asarlar bilimdoni".

2. "Tezkor savol-javob".

3. "Buyuk mutafakkir va adib".

4. "She'riyat".

5. "Insho yozish".

Tanloving respublika bosqichida



1-o'rinn g'oliblari – Prezident sovg'asi "Kobalt" avtomashinasi, 2-o'rinn g'oliblari – 50 mln so'mdan, 3-o'rinn g'oliblari – 30 mln so'mdan, qolgan ishtirokchilar 10 mln so'mdan pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

"Yosh kitobxon" tanloving 10 yoshdan 14 yoshgacha toifasi final bosqichida Samarqand viloyatidan kelgan ishtirokchi Nargiza Muhammadiyeva(417,4 ball) 1-o'rinni qo'lga kiritib Kobalt avtomobili sohibasi bo'ldi. 387 ball bilan 2-o'rinni Namangan viloyatidan E'zoza Mansurjonova egalladi. Unga 50.000.000 so'm pul mukofoti berilgan bo'lsa, Buxoro viloyatidan Halima Sharopova 379 ball bilan 3-o'rinni qo'lga kiritdi va 30.000.000 so'm pul mukofoti bilan taqdirlanadi. 15–19 yosh toifasi bo'yicha g'oliblar: 1-o'rinni – Mironshoh Nurmatov (Qashqadaryo viloyati), 2-o'rinni – Hulkaroy Qalandarova(Qoraqalpog'iston Respublikasi), 3-o'rinni – Dilnavoz Xaytahmatova (Andijon viloyati).

Navbatdagi 20–30 yosh toifasi bo'yicha ishtirokchilarga omad tilab qolamiz!

**Shaxobiddin XOLBOYEV,  
Asilbek ISLOMOV,  
O'zDJTU talabalarini**

# Ma'rifat

## TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi  
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari  
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

**Bosh muharrir:** Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxitga olingan.  
Indeks: 149 150. V-5451. Tiraji 6336  
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan  
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

## TELEFONLAR:

qabulxona – (71) 233-50-55;  
kotibiyat – (71) 233-99-15;  
reklama va marketing bo'limi –  
(71) 233-42-92 (faks) (71) 233-56-00.

ISSN 2010-6416



9172010641009

"Ma'rifat" dan  
materiallarni ko'chirib  
bosish tahriri yati  
ruxsati bilan amalga  
oshirilishi shart.  
Tahriri yati kelgan  
qo'lyozmalar taqriz  
qilinmaydi va mual-  
lifga qaytarilmaydi.

Tahriri yati kelgan  
qo'lyozmalar taqriz  
qilinmaydi va mual-  
lifga qaytarilmaydi.  
Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.  
**MANZILIMIZ:**  
100083 Toshkent shahri  
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.  
Web-site: www.marifat.uz

Mobil ilovani  
yuklab olish uchun  
ushbu QR-kodni  
skanerlang:



**Dizayner:** Malohat Toshova  
**Navbatchi muharrir:** Faxriddin Rahimov.  
**Navbatchi:** Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa  
ijodi uyida chop etildi.

**Korxonalar manzili:** Toshkent shahri  
Alisher Navoiy ko'chasi 30-uy.